

# GULISTAN

1

1940
Телеграм манзилимиз:
@turkiston_kutubxonasi

Butun dunja proletarlari, ʙirlaşiꞑiz!

# ГУЛИСТОН

Oz K(ʙ)P MK organi

*VII-jil ciqarilişi*

Janvar 1940 № 1 (65)

# Ozʙek xalqiniꞑ juksak sjasij aktivligi






1939 J. 29 dekaʙrda Taşkent, Frunze rajoniniꞑ 22-sajlav ucastkasida mihnatkaşlar oz avazlarini ortaq Stalinga ʙerdilar.

Foto Penson,

1940 jilniꞑ arafasida, otgan jilniꞑ 29 dekaʙrida ʙutun Ozʙekstan sotsialistik Sovet Respuʙlikasi ʙojica mahallij Sovetlarga sajlav ʙoliʙ otdi. Bu sajlav zor ʙir xalq ʙajramiga ajlandi. Ertalaʙ kocalarda jurar ekanmiz, jaꞑi kjimlar kijiʙ jasaniʙ algan qizoqullarni, xursand cehra ʙlan səjl qiliʙ jurgan kşilarni har qadamda ucratiş mumkin edi. Har jandan muzika avazlari, aşula, qahqaha... Taşkentda ʙutun ucastkalarda dejarli maraqli konsertlar ʙerildi.

Şu qadar ruhij kotarinkilik ʙlan otgan ʙu sajlav, ozʙek xalqiniꞑ Lenin-Stalin ʙajraqi astiga mustahkam çipslaşganini, uniꞑ juksak sjasij aktivlik daraçasiga erişganini korsatdi. Taşkent oʙlast Sovetiga, Taşkent şahar Sovetiga va rajon Sovetlariga sajlavniꞑ juksak natiçalariniꞑ ozi ham ʙu sozimizga isʙat ʙolaaladi. Xalqdagi ʙu kotarinki ruh va sjasij aktivlikniꞑ asasij manʙai—Stalin Konstitutsijasida, sotsialistik demokratija qanunidadir.

Sajlav kuni taꞑatarda, Taşkent Oktaʙr rajonidagi 24 nci ucastkaga saat 6 dan ʙir qanca ʙurun 81 jaşli ʙukcajgan ʙir kampir keldi. Şu qadar keksaligiga qaramasdan, jaşligi tutiʙ, zamanamiz ta'siri ʙlan juragidagi oti alangalaniʙ, ʙjulletin taşlaşda ʙirincilikni aliş ucun kelgan. Bu ajtiʙ otganimiz, Zarʙdar mahallasidagi A'la ʙiʙi Mirʙaʙa qizi edi. Haqiqatan ham u sajlavda a'la ʙaha aldi. Uniꞑ ketidan esa 84 jaşli Risqi ʙaj Rozimuhammedov oz kampirini jetaklaʙ kiriʙ keliʙ qaldi. Rastdan ham, şu momentda keksalar jaşlarniꞑ kozini kujdiriʙ qojdilar.

Sajlav kuni ozini jaqqal namajiş etgan ozʙek xalqidagi quvanc va maqrurlik jana şu ʙlan ham mustahkamlanadiki, oziniꞑ XV jillik tojida Ozʙekstan Lenin ordeniga ega ʙoldi. Ittifaqimizdagi 11 respuʙlikaniꞑ toꞑquc ordendari Sotsialistik Ozʙekstandir! Buniꞑ ustiga jana miꞑlaʙ nşandarlarimiz va Ittifaqda daꞑqi ketgan maşhur kşilarimiz ʙardir.

Rahmatovcilik harakati paxtacilik sahasida Ozʙekstanni çuda çiddij jutuqlarga eriştirdi. Bu harakat sajasidagi jutuqlar kundan-kunga jana juksalmakda. Həli gektardan 50-100 sentner hasil aliş ammavij ʙir hasil ʙoliʙ qalaçaq!

Suqariş sahasidagi qilgan işlarimiz ham cakana ʙolmadi. 1939 jilniꞑ ozida 52 ta suqaruv oʙ'jekti quruldi. Bularniꞑ eꞑ kattasi, ozʙek xalqiniꞑ faxri—ortaq Stalin namidagi Katta Farqana kanalidir. Katta Farqana kanali quruşda ʙaşlangan xalq taşaʙʙusi esa, Ittifaqimizniꞑ ʙarca xalqlariga ornak ʙoliʙ qaldi.

Tilida va dilida ʙujuk Stalin namini jad etiʙ, kanal qazişga kelgan xalq, xuddi şu nam ʙlan 29 nci dekaʙrda sajlav jaşiklari janiga keldi. Xalqniꞑ dilidagi alqiş, xursand cehrasidan namajan ʙolar edi: «Jaşasin dunjada eꞑ demokratik Stalin Konstitutsijasi!» «Bizga şu qadar qamxor ʙolgan Stalin miꞑ jillar aman ʙolsin!», «Baxtimizga aman ʙolsin Stalin!»

Ortaq Stalin—Taşkent şahar Sovetiniꞑ eꞑ ʙirinci deputati qiliʙ sajlandi. Bizniꞑ ortaq Stalindaj deputatimiz gozal pajtaxtimizniꞑ va umuman xalqimizniꞑ iftixaridir.

Ozʙekstanda 29 dekaʙr, sajlav kuni muvaffaqijat ʙlan otdi. Kommunistlar ʙlan partijasizlarniꞑ Stalinca ʙloki qalaʙa qazandi. Bu kun — ozʙek xalqiniꞑ xatirida oziniꞑ gozal husni, ʙaj ma'nasi ʙlan aʙadij saqlaniʙ qalaçaq. Kommunistlar ʙlan partijasizlarniꞑ Stalinca ʙloki jeꞑilmas ʙir kucdir. Bolşeviklar partijasi atrafida mustahkam çipslaşgan ozʙek xalqi kundan-kunga kommunizmniꞑ jaꞑi qalaʙalari taman ʙaraçaq.

# „Maska“

(Hajkaltaraş S. Merkurov esdaligi)

1924 jil, 21/I dan 22/I qaraşli tun.

Savuq. Davul. Izmajlov ormani.

Kec.

Kaltaca ton kijiʙ işlamakdaman. Savuq şamaļ studijaniŋ katta terazasiga urmakda.

Telefon avazi eşitiliʙ qaldi:

— Nma qilajapsan?

— Işlajapman.

— Nmaga şunca kec qaldiŋ?

— Qandaj «kec» ʙolsin, saat 8 gina-ku.

— Sen daim ustaxanada ʙolasanmi?

— Şundaj savuq va davulda ormanga ʙarişga ʙujurarmidiŋ!

— Xop, kecir meni! Işlaj ʙer.

Bir saatdan kejin taƣin zvonok:

— Sen haman işlajapsanmi?

— Hə,

— Kecirasan, ʙiz ʙunda, Sovetda, ʙir narsa toƣrisida tartişiʙ qaldik. Şuni tekşirmakci edik: ajtci zinhar: adamniŋ juzidan maska aliş ucun nmalar kerak?

— Tort kilogram gips, ʙir az stearinli maz, ʙir metr ip va jaxşi ustaniŋ qollari kerak.

— Hammasi şumi?

— Şu.

Rahmat. Bezavta qilganimiz ucun kecir. Sen ham haman işlaj ʙerasanmi, hec qajga ketmajsanmi?

— Joq ketmajman.

Ormanda kucli davul avazi.

Terazaniŋ taxta pardasini japdim. It peckaga işqalanmakda.

Taƣin telefon avazi:

— Hazir seniŋ arqandan avtomoʙil ʙaradi. Sovetga kel, sen keraksan.

Bir saatdan eşik qaqildi. Avtomoʙil orman ʙaşida qalgan, jetiʙ kelalmaptilar.

—Kijin, ketamiz. Senga ʙir iş ʙar. U işniŋ aniƣini kejin, Sovetda ʙilasan.

Kaltaca tonda edim, şuniŋ ʙlan ciqa qaldim. Avtomoʙilga tuşiʙ, Moskva sovetiga keldik.

Uj'arda çan asari joq. Ƣajri taʙi'j çim-çitlik. Craƣlar ocgan. Qaraŋƣi ʙa'zi ʙir jerlardagina dezur lampalar janmakda. Katta ujniŋ ʙurcaklaridan ʙirida carim kijimli ikki ortaq korunadi. Bellarida qura'lari ʙar. Meni kutmakda edilar.

—Sen mana ʙular ʙlan ʙarasan.



*V. I. Lenin*

*Skulptur S. Merkurov işi. Bu hajkal Nju-Jorkdagi xalqara korgazmada „Sovetlar eliniŋ daŋdar kşilari-pavilioniga qojilgan edi.*

—Qajaqqa?

—Qajaqqa kerak ʙolsa, ʙargandan kejin ʙilasan.

Avtomoʙil tajjar edi. Men xajirlaşdim. Ikki janimda carim kijimli ikki ortaq. Kalta tonim savuqdan qutqaralmajjatir. Avtomoʙil Zamoskvorecje ʙojlaʙ jol saldi. Pavletskij vokzaliga jetiʙ keldik.

Bizni onlaʙ adam kutiʙ aldi—hammalari ştat kjimida. Paltolari astida harʙij formalari ʙarligini sezdim. Ojga qaldim: agar masala meniŋ ustimda ʙolar ekan, on kşi meniŋ ucun çuda kop'ik qiladi, ikki-uc kşi ʙlan kfajalansalar ham ʙolar edi. Demak, gap meniŋ ustimda emas. Fikrlarim işlaşdan ʙutun vaz kecdilar.

Bir neca kşi meniŋ qaşimga keldilar:

— Sizga avtodrezinada anca uzaq jurişga toƣri keladi. Savuq ʙolar. Mana ʙu şnelni ham kijiŋiz,—dedilar.

Avtodrezinaga kiriʙ oltirdim, ikki tamandan carim kijimli ikki ortaq oltirdilar.

Tun qaranƣisida çonaʙ ketdik. Stansa va jarim stansalarda ʙizni kok otlar qarşi aldilar, ʙiz otiʙ keta ʙardik. Axiri qzil olga ucradik. Toxtadik. Tuşişga ʙujurdilar.

Platforma. Tun. Savuq, Nafas aliş qijin. Qapqaranƣi.

— Ortaqlar, endi nma ʙujurasiz?

—Bizga sizni şu platformaga keltirişga va qandaj amrlar ʙolsa, şuni kutişga ʙujurilgan. Biz ʙaşqa hec nma ʙilmajmiz.

Platforma ʙojlaʙ jurmakdaman. Qapqaranƣi. Cajrak saatdan soŋ platforma janida cananiŋ kolangasi korundi. Canaga oltirişga taklif qildilar. Çonaʙ ketdik. Jaritilgan darvazaniŋ aldida postun kijgan casovoj turipti, u ʙizni otkaziʙ juʙardi.

GPU formasida ʙolgan ʙirav telefon qildi:

—Merkurov keldi.

Meni jarim qaranƣi ʙolmaga kirgiziʙ, oltirişga taklif qildilar... Katta xananiŋ eşigini acdilar, ʙolma jaruƣ edi. Stol ustida Vladimir Il'icniŋ jatganini koriʙ, cociʙ ketdim. Kimdir meni caqirdi.

Vladimir Il'icniŋ ʙaş tamanida Nadezda Konstantinovna turardi. U qajƣisiga cdam ʙermakda, əmma ceksiz xasrat uni jeŋiʙ qojgan. Bir janda Marja Il'inicna qajƣiga ʙatiʙ, tik turardi.

Nadezda Konstantinovnaniŋ mulajim avazini eşitdim:

— Siz Vladimir Il'icniŋ ʙjustini jasamaqci ediŋiz, sizniŋ aldiŋizda turiʙ ʙerişga vaqt tapilmas edi—endi mana, sizni kutiʙ jatiʙdi. Maskasini alişga toƣri keladi.

Bolmada maska aliş ucun zarur narsalarniŋ hammasini tapdim.

Vladimir Il'icniŋ qaşiga keldim, ʙaşini səl cetga ʙuriʙ tuzatiʙ qojmaqci ʙoldim. Ihtjat ʙlan ʙaşini ikki jandan tutdim. Bojni va ʙaş arqasi həli issiq edi. Birdan...ʙu nma?.,Tamirlari urjapti! Joq mumkin emas, juragim qattiq tepa ʙaşladi. Qollarimni aldim. Nadezda Konstantinovnani caqriʙ ciqişni otundim.

Şunda ʙolgan ortaqdan olganini kim tasdiq qilganini soradim.

—Doktorlar.

— Hazir ulardaꞑ ʙirantasi ʙarmi?
—Hə, nma ʙoldi?
—Şularniꞑ ʙravini caqiriꞑci.
Doktor keldi.

—Ortaq, Vladimir Il'icniꞑ qulaqiniꞑ tagidagi, mana ʙu jeridagi tamiri tepmakda!

Doktor tutiʙ kordi. Undan kejin meniꞑ qolimni aldi, stoldagi toşakniꞑ cetini qajfariʙ, meniꞑ ʙarmaqlarimni savuq stolga qojdi. Barmaqlarim kuc ʙlan tepar edilar.

—Ortaq, ʙunca taşvişlanişga jaramajdi—tamir tepa jatgan joq, sizniꞑ ʙarmaqlariꞑiz tepmakda. Tinclaniꞑiz. Siz hazir çuda mas'ulijatli iş qilajapsiz.

Bu sozlar meni esga keltirdi.

Bu maska—çuda muhum tarixij huççat. Men olum toşagida jatgan Il'icniꞑ juzini saqlaʙ, asrlarga miras qiliʙ qaldirişga tegişman...

Eşik qaşida Marja Il'inicna harakatsiz tikka turmakda. Men işlagan vaqtda u sra qimirlamadi.

Axir erta saat tortlarda men işni tamamladim.

Meni şaşildiradilar. Professorlar çasadniꞑ icini aciş ucun keliʙ qaldilar. Men soꞑi xajirlaşuv nazarini saldim. Şvejtsarija, Tsjurix, Eintrahtda[1]—Il'icniꞑ nutq sozlaganlari meniꞑ esimga tuşdi. Undan kejin —Moskva—Kreml, taqin Qzil majdan esimga tuşdi...

Ikkinci kuni maska Lenin institutiga keltiriliʙ, polat şkafga ʙeklaniʙ qojildi.

1) S. Merkurov Vladimir Il'ic ʙlan cet elda emigratsija jillarida ucraşar edi.

# Eꞑ muhumi

(Hkaja)

Bu vaqia 1919 jilniꞑ qiş kunlarida ʙolgan edi. Jarim kecadan otganda Vladimir Il'ic Lenin Moskva kocalarida ajlaniʙ jurardi.

Kocada hec kim joq va qar tuşiʙ hama jaq aqargan edi.

Jaqilmagan fonarlar qar ujumlari ustida qarajiʙ korinadilar.

Apteka janida Leninga otkinci ʙrav duc keldi. Bu — temir jol ucun vagonlar quradigaꞑ zavodniꞑ işcisi edi. U kecki smenada işlar, hazir esa, carcaʙ, ujiga qajtardi.

Şundaj ʙoldiki, apteka ajnagi aldida u, Vladimir Il'icga jetiʙ aldi, ajnadan tuşgan nur hər ikkisini jaritdi, işci Leninni taniʙ qaldi.

Jolavci işci toqtadi.

Jaqindagina duşmanlar Leninga oq atgan edilar, hazir ʙolsa hec qandaj qoriqcisiz şaharniꞑ ʙoşaʙ qalgan kocalarida jalqiz juriʙdi. Işci kop ojlaʙ turmaj, Lenin arqasidan ketdi, lekin Vladimir Il'ic sezmasin deʙ kocaniꞑ narigi ʙetiga otiʙ aldi.

Ular şundaj qiliʙ, şaharniꞑ u ʙaşidan-ʙu ʙaşiga ʙirga ʙasdilar. Lenin aldinda, işci esa, undan jgirma qadamca narida ʙarardi.

Aftidan, Lenin axiri carcadi şekilli; u Nadezda Konstantinovna turadigan ormancilik maktaʙi çajlaşgan Sokolniki degan çajdan jajav kelardi.

Qzil majdanga kelganda Lenin contagidan romalcasini aldi, qulaqcinini jeşiʙ, peşanasini ərtdi.

Contagidan romalcasini alganida, romalga ilaşiʙ ʙir qaqaz jerga tuşdi, ʙirar xat ʙolsa kerak.

Vladimir Il'ic uni sezmaj, keta ʙerdi.

Işci xatni jerdan aldi va Kreml darʙazasi aldida Leninga jetiʙ aldi. Saqci janida Leninga xatni uzatdi:

— Tuşiriʙ qojdiꞑiz, Vladimir Il'ic!

Lenin tez qajiliʙ qaradi. Işci jana ʙir nma demaqci ʙolgan edi şekilli, lekin şundaj tolqunlangan ediki, hec nma dejalmadi.

Lenin xatni aldi. Işciga çuda diqqat ʙlan qaraʙ turdi-da, çiddij qiliʙ:

- Rahmat, ortaq! — dedi.

Kejin işciniꞑ qolini aliʙ qattiq siqdida, jana:

– Rahmat! — dedi.

Işci zavoddagi ortaqlariga kecasi Lenin arqasidan uni qandaj qoruqlaʙ jurganini sozlamaqci ʙoldi.

Sozlaj ʙaşlagan edi, hkajaniꞑ koꞑuldagidek ciqmaganini sezdi. U Lenin ustidagi kijimni, qaqazniꞑ qandaj qiliʙ jerga tuşganini sozladi, lekin ʙularniꞑ hammasi u ajtmaqci ʙolgan narsalar emas edi.

— Lenin xuddi meniꞑ qulaqcinim sꞑari qulaqcin kijgan edi—dedi u, lekin meniki sarqiş, Vladimir Il'icniki qara edi.

Kejin hammalariga qolini korsatdi:

— Vladimir Il'ic qolimni siqdi. «Rahmat, ortaq!» dedi. Hə, rastdan ham, uniꞑ egnida qara, uzun poltosi ʙar edi...

Aq mojlaʙ keksa slesar uniꞑ sozini keskin ʙoldi.

— Gapniꞑ eꞑ ahamijatli çajini ajt! Sen ʙolsaꞑ hə deʙ qulaqcin jana poltosi qara edi dejsan.

— Gapniꞑ eꞑ ahamijatli çajimi? Hazir...

Işci sukutda qaldi, ojlandi va jana sozlaʙ ketdi.

— Sen qandaj deʙ ojlajsan: u menga nma ucun rahmat dedi? Xatni tapiʙ ʙerganim ucunmi? Balki xat unga ʙutunlaj keraksizdir. Xatiriꞑ çam ʙolsin, Lenin kerakli qaqazini joqatmajdi, dostim! Ajtmaqci ʙolganim xat haqida emas...

Işciniꞑ juzi çmirlaşiʙ ketdi, qolini silkitdi:

— Kecirasiz dostlarim, gapniꞑ eꞑ ahamijatli çajini ajtiʙ ʙeralmajman. Uni aꞑlatadigan sozlar menda joq... — dedi.

Lekin ortaqlari tuşundilar: ʙu işci ham Leninni ularniꞑ hammasi kaʙi çanidan aziz korardi.

Eꞑ ahamijatligi ənə şu edi...

*A. Kononov*

**F. Muhammadijarova tarçimasi.**





1917 jil Oktaʙrida Lenin va Stalin Smolnida harʙij deꞑizcilar ortasida.

Rassam: Mizernjuk.

# Gorkij va Lenin

(Bir-ikki lavha)

Mana, London cekkasiniꞑ qaşşaq ʙir uji,
Il'ic ʙlan korişgandiꞑ şunda ʙir joli;
Rusijada mudhiş parvaz urganda qarƣa,
Siz ikkiꞑiz ozga jurtda natinc, ʙadarƣa,
Il'ic dedi: «Çuda jaxşi kelgansiz, Maksim,
Tartiş ʙolar, siz tartişnь sevasiz, dostim!»
Xurram ediꞑ Il'ic kaʙь dostlariꞑ ʙlan,
Kuldirardiꞑ xoʙ açajiʙ sozlariꞑ ʙlan.
Şunda Il'ic ləʙlaridan ʙirinci nafas
«Ana» romaniꞑ haqida eşitildь səs
«Ana» pajtimizga hazir çuda mas keldi!
Işcilarga aꞑ aşiriş ucun saz keldi,
Cet tillarga uni etmaq kerak tarçima
Aşsin işci ortaqlarda şundaj taçriʙa!»
Amerikada jurganiꞑnь sozlagan caƣiꞑ
Qandaj qahqahaga toldi dahij ortaƣiꞑ!
Soꞑra dediꞑ: «Il'icniꞑ şu kulgisi əsl,
Şu kulgidan iʙrat alsin osucь nasl».
Va'da ʙerdi, ʙir kun keldi dostiꞑ Kapriga[1])
Qulaq saldi ʙaliqciniꞑ har ʙir gapiga,
Baliqcilar uni «Aşnamiz» deʙ atadi,
Şunda haman şrin xatiralar jatadi!...
Şundaj ucraşlardan jana eꞑ muhumragь
Boldi onsakkizinci jili Kremldagi:
Il'ic aƣir jaralangan, jatmaqda huşsiz,
Ƣoja unga huş ʙerdiꞑ sen; ʙolsa-da kucsiz—
«Aleksejim, Aleksejim!» deja qicqirdi,
Şu soz ʙlan unga şu dəm goja kuc kirdi...

**Davran**

[1]) Kapri—Orta deꞑizda Italijaga qaraşli ʙir aral.

# Stalin namidagi Katta Farqana Kanali—mihnat qahramanligi jadgaridir



Ortaq Stalin namidagi Katta Farqana Kanaliniꞑ arxitektura tuzulişi stalinca quruluşdagi qahramanlikni, oşa quruluşda qatnaşganlarni — ketmancilardan tartiʙ, inzener, doktorlargaca qaplaʙ algan ataşin qozqalişni tasvir qilişi kerak.

Katta Farqana Kanalida 300 ga jaqin katta va kicik gidrotexnik inşaatlar (şalalalar, djukir, akveduklar, quvurlar, toqanlar) salinadi va 100 ga jaqin jaꞑi kopruklar quruladi.

Katta Farqana Kanaliniꞑ arxitektura tuzulişida eꞑ zor ahamijatga ega ʙolgan oʙjektlar tuʙandagilardan iʙaratdir: Narin ustidagi ʙaş inşaat, Ucqorqan suv taqsimatcisi, şalalali toqanlari, Najman akveduki, Kujgan jar plotinasi, Beş ariq gidrouzellaridir.

Bu inşaatlar hammasi çuda kucli oktsintrovkaga ega ʙoladilar va şuniꞑ arqasida KFK trassasida muajjan ritm hasil qiladilar.

Bularniꞑ aralarida, atrafni oraʙ turgan taʙiij manzara, suvniꞑ ajnadek saf juzi, kanal ʙojlaʙ ketgan katta jol janlariga otkazilgan komkok daraxtlar ʙlan ʙir garmonijada orinlaştirilgan məjda inşaatlar mana ʙu jirik arxitektura ʙezaklariniꞑ qamatlarini, cehralarini çuda ham aciʙ korsatadilar. Har ʙir inşaatniꞑ hamma qismlariniꞑ oz-ara maslaniʙ işlanişi, şunindek memorial lavhalarniꞑ ʙnakarlik ucastkalari ʙojica maslaʙ otkazilişi Katta Farqana Kanalidagi arxitektura ʙirligini aciq korsatadigan lejtmativ ʙoliʙ xizmat qiladi.

Stalin namidagi Katta Farqana Kanaliniꞑ Narindan suv aladigan ornida monomental inşaat-ʙaş regulator turadi. Bu regulator inşaatlar tuzumida Narindan suv aliʙ ʙeradigan ʙirinci zvenodir. Bu oʙjektniꞑ ahamijati çuda ham zor ekanligini i'tiʙarga aliʙ, uniꞑ janʙaşiga Nariꞑniꞑ ʙojginasiga momorial lavha va Katta Farqana Kanaliniꞑ ilhamcisi— xalqlar dahisi ortaq Stalinniꞑ hajkali otkazilgan katta monoment quruliş lajihalanadi.

Monomentniꞑ pastki qismida uniꞑ oziga mas qiliniʙ, zamanamizdagi, hamma uluq işlar ilhamcisi toqrisida sozlavci xatlar jazilgan ʙoladi.

**Xalq ʙaxtiniꞑ ʙaqiʙani uluq Stalin.**
**Qaliʙlarniꞑ şaraf-şani uluq Stalin**
**Sen ʙar ucun şu qadarliq asajiş, şadmiz,**
**Sen ʙar ucun qajqilardan, qamdan azadmiz.**

**Kanalniꞑ ozi toqrisida:**
**Miꞑ-miꞑ gektar taza tupraq işga kiradi.**
**Mamlakatga dunja-dunja hasil ʙeradi.**
**Jaz javanniꞑ paxtasiga toladi çahan,**
**Altiꞑ ʙuqdaj va guruncga ʙolaçaqdir kan.**
**Butun colda tapilmagaj ʙir tkan, ʙir xəs**
**Həs orniga ʙunda ʙitar şahi va atlas.**

Monoment ʙlan regulator ustidagi koprukcaga taşdan qilingan crajli zinə ʙoldi va ʙu zinə Kanalniꞑ ikkinci qirqaqidagi pastlikka tuşiʙ tugajdi. Uniꞑ axirlariga taşdan ojiʙ qilingan crajlik hajkallar qojiladi. Regulator arxitekturasiniꞑ ham cehrasi aciliʙ ketadi. Uniꞑ ustiga ʙaland qiliʙ kompazitsijani tugallaʙ ʙeradigan şaffaʙ hava arkadasi otkaziladi.

Regulator atrafi doꞑ va tupraq-tepalardan tazalanadi va kickinagina daraxtzar majdan jasaladi, aʙad qilinadi.

Baş regulatordan 300 metr uzaqliqda turgan suv taqsimati inşaat oziniꞑ arxitektura jaqidan həl qilinişida ʙaş regulatorga muvafiq qiliʙ işlangan va zinə-ulardan pastga tuşiʙ turgan arkmomentlar ʙlan oktsentlaştirilgan. Suv taqsimatci inşaatniꞑ ʙutun oʙrazi atrafni oraʙ algan taʙiatniꞑ salaʙatli husni ʙlan jana jaqqal korinadi.

Asaka dukeri Kanal frassasidagi ʙir az ʙaşqacaraq inşaatlardandir: ʙu jerda KFK jerniꞑ tagiga qaraʙ ketadi va temir ʙiton quvurlar arqali 60 metrdan aşiqraq masafani Asaka saji astidan aqiʙ otadi.

Kanalniꞑ dukerga kiriʙ ketadigan jeri aldiga timga oxşagan ikki povilion ʙna qiliniʙ, ularniꞑ ʙalandligi 6 metr ʙoladi, ozlari jer astiga kiriʙ ʙarajatgan Kanal ucun goja ʙir darʙaza xizmatini qiladilar.

Povilionniꞑ devarlari Kanal quruluşiga ʙaqişlangan ojmakar rasimli naqşlar va memorial lavhalar ʙlan ʙezatiladi:

**Mihnat qilgan adamlardan ʙoliʙ haꞑi-man —**
**Kotarilar edi daim colni ʙasiʙ caꞑ.**
**Astimizdan dunja-dunja tupraq kocardi,**
**Bir zarʙ ʙlan aqir ədir quşdaj ucardi.**
**Titraq kiriʙ qattiq jerniꞑ qahriga qadar**
**Zilzilalar kokka qaraʙ salar edi çar.**
**Carcaganni sezdirmasdi, ʙu açajiʙ iş,**
**Hajran edik, ja açaʙa, ʙu oꞑmi, ja tuş?!**

Kanalniꞑ arxitektura tuzulişida mil-

lij arxitektura elementlari fajdalanilgan.

Kanalniŋ dukerdan ciqiş jerida Kanal внakarlari kolxozcilarniŋ Kanal вitgandan kejingi вajramlari va şadijanalarini tasvir qiladigan вir toda kolxozcilarniŋ вir top qiliв tuşurilgan hajkallari вlan вezatiladi.

KFKniŋ вaşidan ta ajaqiqaca вir toda toqanlar qilinadi. Bu toqanlar suvlarniŋ вir tekkis aqişi va toqri taqsim вoluşini ta'min etadilar. Ularniŋ arxitektura tuzulişlari sadda, kam haşam, lekin çuda korkam toqanlarniŋ kompazitsijalari вu inşaatlarnin axiriga hajkallar qojiş joli вlan mukammallaştiriladilar.

Toqanlarniŋ hajkallar вlan вezatilişdagi tematikasi: mihnat qiliş, dəm aliş va ilm aliş huquqlaridan iвaratdir. Kuş Kanaliniŋ вaşidagi toqan ustiga ham dəm alajatgan kolxozcilarniŋ вir figurali hajkali qojiş lajihalanadi.

Stalin namidagi Katta Farqana Kanaliniŋ eŋ açajiв inşaatlaridan вiri Najmansaj akvedukidir. Bu jerda KFK katta temir вiton qiliв işlangan nav arqali saj ustidan otiв ketadi. Akvidukniŋ Kanal suvi kiradigan çaji uciga hajkallar otkazilgan katta ustunlar va ularniŋ aralariga jasalgan har xil hajkallar вlan вezatiladi. Stunlar ustiga tuвandagi sozlar jaziв qojiladi:

**Bir jarim aj вajram вoldi Kanal вojlari,**
**Otiв turdi keca-kunduz şadlik tojlari.**
**Taŋda karnaj carlar edi вizni iş taman,**
**Tuş caqida qoşuqcilar вoladi mihman.**
**Kecin qizlar kakil jaziв salardi sada.**
**Tavuşiga sajraq quşlar вolardi əda.**
**Ucqorqanniŋ collarida sahna вar edi,**
**Tamaşaвin şunca kopki, col ham tar edi.**

Narindagi вaş regulatordan kejin kattalikda Qaradarja ustidagi (Ziljonnij most rajonidagi) regulator turadi. Uniŋ atrafida ser adam rajonlar вar, temir jol stansasi вar. Ançan şaharidan ciqadigan katta jaŋi jol вar. (12 kilometr). Şuniŋ вlan вirga u jer oz ahalisiniŋ çuda sevgan dəm aliş ornidir. Ajniqsa Ziljonnij most atrafida madanijat va istirahat вaqi вna qilinganidan kejin, plotina vasitali dimlaniв turadigan Qaradarja ustida suv sporti jolga qojiliв juвarilgandan kejin u jerniŋ ahamijati jana aşadi.

Qaradarja suvini tosiв turuci plotina jaqac xarilar вlan darja tagiga qaqiв tiklaniв, iciga laj—вiton va taş tolqaziladi. Plotinanin juz tarafi taxta-taxta qiliв jasalgan вitonlar вlan qaplanadi. Plotinanin sirtiga pjada juradigan pançaradar koprık qilinadi. Bu kopruk Kanalnin ikki sahilini вir-вiriga ulaв turadi.

Sojuz hukumatinin KFK qurulişi toqrisidagi qarariga вnaan ortaq V.I. Leninnin irrigatsija ahamijati toqrisida Daqistan deqanlariga jazgan xatidan va şu toqridagi ortaq Stalin nutqlaridan alahida parcalar aliв, вu inşaatnin вaв jerlariga crajli qiliв jaziв qojiladi.

KFK qurucilarinin fikr, tlak va arzulari Kujgan jarda jaziв qojiladigan tuвandagi xatda gavdalantirila di:



Kanal вojiga ornaştirilaturgan lavhalardan вiri.

**Inzenerlar xalq kuciga işancda edi,**
**Xalq kuciga ilm qoşiв quvancda edi.**

**Bir açajiв afsanaga oxşar edi вu**
**Butun çahan tinlar edi, qolida kozgu—**
**Qarar edi xaritadan Farqana jerin,**
**Kutar edi afsananin hamma axirin.**
**Mana endi qolga kirar min jillik arzu.**
**Jaŋi izga вuruladi, Narindagi suv.**

Kanalniŋ cəp sahilida qahraman kanalcilar gulzar məjdani sfatida komkok keŋ вir вaqca вnaga keltiriş projektlaştirilgan, вu jerda stalinca qurulişniŋ eŋ dandar kşilarin hajkallari otkazilinmaqci вoladi. Şunin вlan вirga mana şu Kanal sahilidagi gulzar вaqqa Ziljonnij most tarafidan kiradigan joli ustida meting va namajişlar otkaziş ucun katta majdan qiliniв, u jerga en zor majak—monoment otkaziladi va çamaat ahamijatiga ega вolgan вnalar quruladi. Majaknin toqri вurcakli temir вitondan qilinişi lajihalangan.

Majak ornaştirilgan pastki qismi parallelepipid şaklida вoliв, unin ustiga asasij memorial lavha va stalinca qurulişdagi qahramanlikni tasvir qiladigan 3 qatar naqş jasaladi Bu naqşlarda: işga toplaniş, tajjarlaniş va işga ciqiş, quruliş epizodlari, quruliş tugagandan kejingi tantana. suv qojilgandan kejingi kolxoz toji, şunindek tuвandagi xatlar jazilgan вoladi.

**Farqananiŋ uluq va zor Kanali ucun**
**Colga ciqdik korsatgali xalqimiz kucin.**
**On jillarga xajal вoliв koringan вu iş—**
**Qirq вeş kunda qolimizda tapdi kuşajiş!**
**Cunki xalqnin qanlarida kuc janar edi.**
**Vahşi, asav taвiatga oc janar edi.**
**Qajalarni gumвurlatiв qopargan caqda.**
**Sezar edik ozimizni senin qucaqda.**

Kiradigan darвazanin вu qismi gul вaqqa kiraviriştagi majdanga qaratilgandir.

Qaradarja вojidagi komkok gulвaq tarafga past-past, usti sajaвanlik stunlar qojulişi projekt qilingan, вular вaland majaknin ken atraf вlan вaqlanişi ucun jardam вeradi.

Majaknin kompazitsijasiga tort hajkal kiritilgan: Stalin namidagi Katta Farqana kanalinin quruci—kolxozci er, kolxozci ajal, inzener va işcilar hajkali.

Majaknin 30 metr вalandlikdagi вir çajiga julduz uşlaв turgan—oвrazli вir şakil qilinadiki, вu monomentga alahida jenillik va konilcaqliq вeradi. En juqarisiga prozektorlar otkaziliв, ular вutun atrafni jaritiв turadilar.

Qaradarjanin вojida, вaş regulatornin janida Stalin namidagi KFK nin memorial muzejsi çajlaşadi. Muzejniŋ вnasi вir qaвat вoliв, markazij qismi вaland qiliв kotariladi. Muzej вnasinin qanatlari katta sathlardan iвarat вoliв, вu sathlar hammasi KFK qurulişi va qurulişdagi вajramlar temasini iciga algan naqşlar вlan вezatiladilar.

Kordanerga kiradigan jolnin ikki tamaniga çajlaşgan ikkita tort stunlik вiblioteka вnasi va leksija zali

ʙaş jolniꞑ propelidan iʙaratdir.

Baş joldagi açajiʙ manzara, ozʙek arxitekturasi ucun xarakterli ʙolgan har xil ojmakar pançaralar, ustlariga hajkallar otkazilgan ʙaland stunlarniꞑ goja taşlarni ustma-ust qojiʙ jasaganga oxşatiʙ qilingan, ʙa'zi jerlarda quruliş alahida epizodlariniꞑ suratlari ojmakarlik ʙlan tuşurilgan raꞑsiz sathlaridan açraliʙ turmajdilar, ular ʙir-ʙirlariga mas qiliʙ işlanganlar.

Bnaniꞑ asasij qismini uniꞑ aldidagi katta zinə va katta zal işqal qiladi. Zalga tuʙandagi narsalar qojiladi: Stalin namidagi KFKniꞑ elektirlaştirilgan, Kanalniꞑ hamma pastiʙalandini qaʙartiriʙ korsatiʙ qojgan xaritasi, Kanal quruluşiniꞑ alahida momentlariniꞑ ʙadiij rasmlari va ojmakar naqşlari, zalniꞑ ortasida katta taş ustiga ortaq Stalinniꞑ hajkali qojiladi. Bu ʙaşlanqic ʙolumdan kejin tortta ekspozitsion ʙolumlar ʙaşlanadi.

Beşariq gidrotexnik uzeli ikki qardaş respuʙlika—Taçikistan va Ozʙekstan ortasiga quriladi. Beşariq uzeli arxitektura tuzulişiniꞑ tematikasi—qardaş respuʙlikalar dostligi va SSSR xalqlariniꞑ dostana hamkarligini tasvirlaşdan iʙaratdir.

Bu inşaat janiga kelganlar tuʙandagilarni oqujdilar:

**Kim zulimdan qutulmaqni istasa cindan;**
**Erkin, azad, hur ʙolmaqni istasa cindan;**
**U alʙatta Moskvaniꞑ izidan ʙarsin,**
**U alʙatta Stalinniꞑ sozidan ʙarsin.**

# Kajal janida

Qollar tegdi ʙilmaj qaldim men
Xanam icra toldi ahaꞑlar.
Ah, raꞑʙaraꞑ unlar çaraꞑlar
Bahar, gullar tasavvurimda.
Gah deꞑiz qojnida tolqunlar
Zilal ʙoşliklarniꞑ çimligi,
Jaki ma'sum əstə ʙir jiqi
Koz oꞑimda gavdalanadi.
Jaki hislar ota—asuda
Sirlar ʙlan tolgan ʙir ʙaqda
Bulʙullarniꞑ mahʙuʙi—gulga
Jazgan şi'rin uquʙ alaman.
Jaki isjan, tofan, kuraş, çaꞑ
Jaki nazik lirik zeziniş
Ja manzara, gozal koriniş
Xajalimda sajr etar tinmaj.
Baj xislatli açajiʙ alət
Sen tufajli ʙaxt va saadat
Caraqladi, dil asudalandi
Erkalandi jaꞑa muhaʙʙat...

**Çasur.**

KFK qurucilari—kolxozcilar oz ucastkalarida memorial lavhalar otkaziş, ularniꞑ ustiga quruliş asasij momentlariniꞑ aj, kunlari, Staxanov metodidagi işlarniꞑ natiçalari, eꞑ jaxşi qurucilarniꞑ namlari, qurulişdagi eꞑ açajiʙ hadisalar va ʙaşqalarni jaziʙ qojiş masalasini qozqatdilar. Şuniꞑ ucun ʙir neca xil memorial lavhalar projektlaştirildi. Ular har qajsi ucastkaniꞑ şaraitiga qaraʙ ornaştiriladi. Bu narsa rajon taşkilatlariniꞑ taşaʙʙusi va kolxozcilarniꞑ mihnati ʙlan qilinadi.

Stalin namidagi KFKniꞑ arxitektura tamanidan ʙezatilişida trassa atrafiga ekiladigan daraxtlar va ʙaşqa kocatlar alahida ahamijatga ega ʙoliʙ, ʙu masala tez kunlar icida vuçudga ciqadi. Kanal atrafiga daraxt va kocatlar ekişniꞑ toqri həl qilinişi umumij arxitektura ansamʙliniꞑ ajrilmas ʙir qismidir:

Juqarida ajtilgan işlar amalga aşişi ʙlan koz koriʙ, qulaq eşitmagan xalq harakati va Stalin namidagi Katta Farqana Kanali 160 miꞑ qurucilariniꞑ mihnatga cnakam kommunistik munasaʙatlarini kşilarniꞑ asrlar ʙojica esidan ciqarmajdigan ʙir jadgar ʙoliʙ qalaçak.

**M. Bulatov.**

Stalin namidagi KFKniꞑ arxitektura ʙezatilişi rahʙari, ʙaş arxitektur.




Katta Farqana kanali ʙojiga qurulaturgan, taşdan işlangan manument, ʙuniꞑ ustiga ortaq Stalinniꞑ ʙujuk hajkali ornaştirilaçak.

# UZUN TIL

**(Hkaja)**

Bugun ertalaʙ Jaltadan kelgan jaşgina çuvan, Natalja Mixajlovna, oʙed qiliʙ otiriʙ, Qrimdagi aramçanlar haqida ʙdiraganica eriga hkajat etadi. Sujunci iciga siqmagan eri esa uniŋ çoşqun juziga eriʙ ʙaqadi, sozlariga qulaq saladi va ara-cara saval ham ʙeriʙ qojadi...

— Lekin u jaqda çuda qijmatcilik emiş-a? — deja soz ara soraʙ qojdi.

— Nma desam ekan? Meninca, narxi-navani çuda aşiriʙ ajtişgan ʙolsa kerak dədəsi. Şajtan ham tasvir etilganidek qorquncli emas. Masalan, Julija Petrovna ikkimiz kuniga jgirma somdan tolaʙ ketivargan nomerda turdik. Hamma gap, dostginam, işniŋ kozini ʙilişda. Alʙatta, agar ʙiran taq-maqqa ciqadigan ʙolsan... Masalan, Aj-Petriga dejlik... At kira qilasan, jollavci alasan, — u vaqt alʙatta katta ciqimdar ʙolişga toqri keladi. Vaj-ʙoj, çuda qijmatga tuşiʙ ketadi! A, Vasjagina u jerdagi taqlarniŋ ta'rifiga soz qajda! Qara, u taqlar şundajin ʙaland, şundajin ʙalandki, minta cerkani ʙir-ʙiriga ulaştirsaŋ ham jetalmajdi... Tepasi har daim tuman, tuman, tuman... Etaklari taş, taş, taş... Ham ʙadamzar... eh, eslasam turalmajman!

— Darvaqi'... seniŋ joqligiŋda allaqajsi ʙir zurnalda oşa jerli jollavci tatarlar haqida jazilgan xaʙarni oqudim... çuda razil kşilar ekan-ku! Haqiqatan ham şundaqa ʙolakca adamlarmi?

Natalja Mixajlovna, juzini nafratamiz tiriştiriʙ, ʙaş cajqadi.

— El qatari adamlar, hec ʙolakca emas... — dedi. — Hə-jə, men ularni uzaqdan, nəridan-ʙeri korganman... Menga korsatişdiju, lekin men i'tiʙar qilmadim. Har vaqt men u cerkaş, junan... araʙlarga şundaj nazar ʙlan qaraʙ kelaman, dadasi...

— Olgudaj xatinʙaz ʙolarmiş.

— Ihtimal! Şundaj ʙejuzlar ʙoladiki, ular...

Natalja Mixajlovna, ʙəmsali dahşatli ʙir narsa esiga tuşgandek, sapciʙ ornidan turdida eriga qorquvli kozlari ʙlan jarim minutgina tikiliʙ qaragac, sozlarini coza-coza dedi:

— Vasjaçan, qandajin ax-laq-sizlar ʙarligini men senga ajtiʙ ʙeraman! Vaj ʙehajalar! Qaraki, qara xalq ja orta daraçali kşilar ʙolsa ham gorga dejsan, ʙu işlarni jələŋ aqsujak va asilzadalar qiladi! Koriʙ juragim arqamga tartiʙ ketdi, oz kozlarimga işanmadim! Olsam ham esimdan ciqmajdi! Hə-də, şu daraçagaca ozini joqatiʙ qojiş... Eh, Vasjaçan, hatta tilim ham ar qiladi gapirişga! Mana masalan hamrahim Julija Petrovnani alsak... ʙram jaxşi eri, ajdek ʙalalari ʙar... ozi esa tuppa-tuzuk ailadan, har vaqt ozini avlijadek



**Anton Pavlovic Cexov**
**(Tuquliși 1860 j. 29 janvar, oluşi 1904 j. 15 ijun)**

korsatiʙ juradi. Ənə endi şu xatin, ʙilsan... Haj, dadasi, ʙu gaplar, alʙatta, entre nous[1]... heckimga ajtmasligiŋ toqrisida va'da ʙerasan-da?

— Ənə uni qaraŋ endi! Alʙatta, ajtmajman.

— Cin soz-ə? hə-də! Men senga işanaman...

Çuvan vilkani qojdi, juziga sirli tus ʙeriʙ, şipşidi:

— Uni qaraginki... Ənə oşa Julija Petrovna taqqa ciqdi... Hava çuda saz edi. U oziniŋ jollavcisi ʙlan aldinda ʙardi, arqaraqda — men. Uc-tort caqirim jurganimizdan soŋ, ʙir vaqt Julija, ajjuhanas tartiʙ, oz kokragini julaʙaşlasa ʙarmi, Vasjaginam! Tatar keliʙ darrav ʙelidan quçaqlaʙ aldi, joqsa egardan qulaʙ ketardi... Men oz jolavcim ʙlan uniŋ aldiga jetiʙ keldim... «Nma gap?» «Nma ʙoldi?» — deʙ soradim. «Vaj, olaman! Ahvalim jaman ʙoliʙ ketjapti! Endi juralmajman!» deʙ ʙaqirdi. Paqqas esxanam ciqiʙ ketsa ʙoladimi! «Joqsa, arqaga qajtajlik!» dedim. «joq, Nataije, arqaga ham qajtalmajman! Agar ʙir adim taşlasam, aqriqqa cdalmaj olaman! Caŋgak tutajapti!» dedi va mendan ham meniŋ Sulajmanimdan jaliniʙ-jalʙariʙ şaharga qajtişimizni, u jerdan ʙuniŋ dardiga dava ʙoladigaŋ dari keltirişimizni iltimas qiladi.

— Şaşma... Gapinga oʙdan tuşunalmaj qaldim... — deja qudurladi eri, maŋlajini qaşiʙ. — Baja ʙu tatarlarni faqat uzaqdangina korganman, deʙ ediŋ, mana endi allaqandaj Sulajman toqrisida gapirajapsan.

Çuvan, tariqca ham iza tartmasdan:

— Ənə, jana sozni qijiqiga aljapsan! — deʙ juzini ʙuruştirdi. — Gumansiragan adamni hec çinim sevmajdi! Əsti! Ahmaqcilikniŋ ozginasi!

— Men qijiqiga alajatganim joq, lekin... jalqan gapirişniŋ nma keragi ʙar? Tatarlar ʙlan sajr qiliʙsan, xajir, ʙolar iş ʙopti, lekin... imanni jutiş nə darkar?

— Astaqprilla!.. Qalatija! — dedi çuvan tepa saci tik ʙoliʙ. — Sulajmanga kuncilik qiljapti! Taqqa jolavcisiz ʙir ciqiʙ korsaŋ ediŋ, korardim! Hə, koriʙ qojardim! U jerniŋ ahvalini ʙilmaganindan, tuşunmaganindan soŋ jaxşisi — indamaj otiraver. Hə, çim otiraver, çim! Ujerda jolavcisiz ʙir adim ham taşlaʙ ʙolmajdi.

— Bolmasaci!

— Hə, mana şundaj ahmaqana çilmajişinni qoj! Men senga Julija emasman. Men uni aqqa ciqarajatganim joq, lekin men!... Lekin men ozimni avlija qiliʙ korsatmasam ham, har qalaj, ozimni uncalik joqatiʙ qojganim joq. Meniŋ Sulajmanim haddidan aşmadi. Aşmadi! Mamatqul Julijaniŋ aldidan ʙir qariş ham çil-

1) Entre nous—oz-ara (fransuzca).

madi desam ʙoladi... men esam, saat on ʙirni urdi degunca darhal: «Sulajman, marş! Çonaꞑ!» dejman. Tatarim sekin çonaʙ qaladi. Uniꞑ çlavi qolimda edi, dadasi... Agar pul-mul ja ʙolak narsa toqrisida aqiz acgundaj ʙolsa, darhal: «Nma-a? Nma-nma? xo-oş?» deʙ oşqirsam çani ciqiʙ, murdaniꞑ ozi ʙoladi-qaladi... ha-ha-ha... kozlari, ʙilsaꞑ, Vasjaçan, ʙram qara, ʙram qaraki, xuddi komurniꞑ ozi dejsan. Turxi tatarca, topasgina, qiziqqina... Men uni mana şundaj uşlaʙ alardim! Mana!

Eri, nan jumalaqlaʙ otiriʙ, quldradi:

— Bilaman!..

— Nadanlik ʙu, Vasja! Mijaꞑda nma fikrlar ʙarligini ʙiliʙ turiʙman axir. Nma ojlajatganiꞑni ʙilaman!... Lekin men seni işantiralamanki, u hatta sajr qiliʙ jurgan vaqtimizda ham haddan aşgani joq. Masalan, taqqa ciqsak ham, Ucan-suv şarşaragiga ʙarsak ham, har vaqt unga: «Sulajman, arqada jur! Arqada!» deʙ qojaman. Becara, harvaqt arqada juradi... Hattaki, oşandaj vaqtlarda ham... hə, juragiꞑni caꞑallaʙ juradigan çajlarda ham, har halda esiꞑdan ciqmasinki, sen faqat ʙir tatarsan, men esam Statskij Sovetnimniꞑ xatinimanl» derdim. Ha-ha-hə!..

Çuvanca qaqalaʙ kuldiju, jalt oguriliʙ, juziga qorquvli tus ʙergac, şvirladi:

— Lekin Julija esa! Vaj, Julijajej! —A, Vasjaçan,—ʙu ʙevafa dunjada nma ucun ham işrat qiliʙ, ojnaʙ qalmajlik? Mumkin, hammasi mumkin... Ojna, şoxlik qil, marhamat, hec kim senga daşnam ʙermajdi, lekin ʙunga çiddij tus ʙeriş, qalva qiliş... Joq, sen nma desaꞑ-de, lekin men ʙunga tuşunalmajman! Qaraja, u menga kuncilik qiliʙ juriʙdi! Ahmaqcilik emasmi, ə? Bir kun uniꞑ aşiqi Mamatqul qidiriʙ keldi... lekin Julija ujda joq edi. Men uni oz aldimga caqirdim... Ortamizda gap ketdi. U dedik, ʙu dedik... Ular çuda dildar adamlar! Aqşamimiz şundaj silliq otdi. Bir vaqt atiliʙ Julija kiriʙ qaldiju... Menga huçum qildi, Mamatqulga qildi... Bizni ojnaşga ham ciqariʙ qojdi degin... tfu! Men ʙundaj narsaga tuşunalmajman, Vasjaçan!

Vasjaçan, ortandi, qaş-qavaqlari salindi, ujda ujaqdan-ʙujaqqa jura ʙaşladi. Nhajat, çirkanclik ʙlan kulimsraʙ turiʙ:

— Vaqtlariꞑiz xoʙ caq otiʙdi, tuzik!—dedi quldiraʙ.

Lekin Natalja Mixajlovna xafa ʙoldi:

— A-a, ahmaqcilikku ʙu! Bilaman nmalar ojlajatganiꞑni! Hamma vaqt mijaꞑda şundaqa iflas fikrlar juradi! Endi senga hec nma ajtmajman! Hec nma!

Çuvanca laʙlarini ʙurdi-da, çim ʙoldi.

1886—jil.

**I. Mirzakalan** tarçimasi.



Jaꞑi Qorqan rajoniniꞑ Stalin namli kolxozidagi, Stalin ismidagi jaꞑi koca

Foto Penson.

vajranadan tapiʙ, kop nasihatlar ʙlan aliʙ ketadi. Maçnun ata-analarini ʙundaj ƣamgin va parişan korgac, ularniꞑ qajƣularini kamajtiriş ucun ozini quvnaq tutadi. Bu xaʙar ʙutun qaʙilalarga jajiladi. Maçnun oz huşiga kelipti, deʙ hamma sevinadi. Bu xuşxaʙar Navfalgaca jetiʙ, u kamali xursandlikdan atlaniʙ, dosti Maçnunni korgali keladi. Maçnunniꞑ atasi Navfalniꞑ kelişidan çuda quvanadi. Şu munasaʙat ʙlan Navfalniꞑ qizini Maçnunga aliʙ ʙeriş ucun qaʙila aqsaqallari ʙlan savcilikka ʙaradilar. Navfal ʙu mihmanlarga zor hurmat korsatiʙ tələʙlarini xursandlik ʙlan qaʙul qiladi. Tojniꞑ hamma sarf-xaraçatlarini oz janidan qilişga va'da ʙeradi.

Atalari savcilikka ketgan kecasi Maçnun ujida qaʙzijjat ʙoliʙ, jana Ləjli qaʙilasiga qaraʙ jol tutadi. Jolda Ləjliniꞑ coʙaniga joliqadi. Undan Ləjlini koriş ucun jardam qilişini sorajdi. Coʙan konadi. Kecqurun Maçnunga ʙir qoj terisini ʙeriʙ: «Mana ʙuni japin, qojlar arasida qojdek emaklaʙ jur. Qaʙilaga ʙargac, Ləjli qizlar ʙlan qoj saƣucilarni tamaşa qilgali ciqadi. Şunda istaganiꞑca koriʙ alasan» dedi. Maçnun coʙan ajtganca qiladi. Ləjli qizlar icida julduzlar arasidagi ajdek atrafga nur saciʙ ciqiʙ keladi. Maçnun uni koradida, qattiq ʙir «ah» tartiʙ jiƣlajdi.

Maçnunniꞑ ah deʙ jiƣlaşidan qojlar hurkiʙ qacadi. Ortada huşsiz halda Maçnun qaladi. Ləjli vaqiadan xaʙar aliş ucun keliʙ Maçnunni koradi. Ləjli ham huşidan ketiʙ jiqiladi. Qizlar xaʙardar ʙoliʙ Ləjlini, qaʙila ahli esa Maçnunni aliʙ ketadilar.

Ittifaqa Ləjli ʙlan Maçnunniꞑ tojlari ʙir kunga toƣri keladi. Ja'ni ʙir kunda Ləjlini Iʙni Salamga ʙeradilar. Maçnunni esa Navfalniꞑ qiziga ujlantiradilar.

Iʙni Salam tojda haddan taşqari iciʙ, nkah kecasi olar halida kasal ʙoladi. Toj azaga ajlanadi. Hamma Iʙni Salam tepasida toplangac, Ləjli sahraga qaraʙ jolga ciqadi. Navfalniꞑ qizi esa, Maçnunniꞑ ajaqlariga jiqiliʙ: «Sen işq eliniꞑ şahisan, muhaʙʙatniꞑ qadru-qimmatini ʙilasan. Bu toj ata-analarimizniꞑ maçʙurijati ʙlan ʙoldi. Meniꞑ jaşlikdan sevgan ʙir kşim ʙar. Agar sen ʙlan turmuşga ciqsam, u ʙu keca ozini halak qiladi. Sen meni taşlaʙ ket, menga akalik qil. Taꞑri seniꞑ Ləjliꞑni oz panahida asrasin, uni senga nasiʙ qilsin» deʙ jalʙaradi.

Maçnun: «Sen qorqma, jariꞑga vafa şiariꞑ ʙolsin. Men seniꞑ koꞑliꞑ ucun ʙu jerga kelgan va qandaj ciqiʙ ketişimni ʙilmaj turiʙ edim. Endi sen iltifat qiliʙ menga çavaʙ ʙerdiꞑ. Buniꞑ ucun senga rahmat» dedi. Navfalniꞑ qizi ʙlan Maçnun ʙir-ʙirlariga aka-siꞑil ʙoliʙ, soz ʙerişadilar. Maçnun şu anda Iʙni Salam qaʙilasiga qaraʙ jol tutadi.

Ləjli ʙlan Maçnun cimildiqdan ciqiʙ keliʙ, mana şu qaraꞑƣi kecada sahrada tapişadilar. Zamananiꞑ zəjli ʙlan taqdirlari qajƣu-ələmdan, hasrat-nadamatdan iʙarat ʙolgan ʙu ʙecaralar ucun ʙu keca—ʙirdan-ʙir keca ʙoladi. Sahargaca ʙir-ʙirlaridan muhaʙʙat ʙosalari aliʙ, azanda Ləjli ujiga qajtadi. Maçnun esa jana şu ƣəm daştida sargardan ʙoliʙ qaladi.

Bir martaʙagina kam ʙergan hajat ʙundan soꞑ Ləjli ʙlan Maçnunga zəhər tola çam ʙeradi. Maçnun ʙir taƣni aramgah qiliʙ, şu jerda fraqniꞑ oldiruci azaʙlarini ʙaşidan keciradi.

Balasiniꞑ dard-ələmlarini tarta-tarta axiri Maçnunniꞑ ata-analari aləmdan otadi. Maçnun ʙu halni tuşida koriʙ, ularniꞑ qaʙri ustiga keladi. Ƣəm ʙalciƣi ʙlan şuvalgan ʙu qaʙrlarga juzlarini surtiʙ, kozlaridan xunaʙalar tokadi. Butun dard-ələmlarini ajtiʙ, farjad-fƣan cekadi.

Maçnunniꞑ ʙaşiga tuşgan ʙu musiʙatlar Ləjliga eşitiliʙ, uniꞑ qajƣulari ikki candan aşadi. Ham oz dardlarini tartiʙ, ham Maçnunga qajƣudaş ʙoladi.

Sanaqsiz azaʙ-uquʙatlar Ləjliga qattiq ta'sir qiliʙ, saƣligini ʙatamam joqatadi. Jilniꞑ xazan pajtida Ləjliniꞑ umr ʙahari ham xazan ʙoladi. Ləjli olim aldida anasiga: «Men olgac, Maçnun ʙu mudhiş xaʙarni eşitiʙ keladi. Unga hurmat va ihtiram qiliꞑlar. U, elga işqniꞑ qaidalarini korsatiʙ, ozini meniꞑ tepamda halak qiladi. U halda ikkalamizga ʙir gor, ʙir kafan qiliʙ kominꞑlar» deʙ vasijat qiladi.

Maçnun sahrada ekan, ƣajiʙdan kelgan ʙir tavuş: «E dardu ʙəla qoşuniniꞑ şahi, turƣil! Ujqu vaqti emas. Jaꞑi ʙaƣiꞑ xazanga ajlandi, craƣiꞑ taꞑ jeliga joluqdi. Bulʙul ʙolsaꞑ parvaz qil, jariꞑ safarga ciqdi. Unga hamrahlik qil» dedi. Maçnun vaqiani aꞑlaʙ, oşa an jolga ciqadi. Farjad fƣanlari jetti qaʙat kokka jetgan Maçnun Ləjliniꞑ ujiga keladida, uniꞑ çasadini qucaqlaʙ çan ʙeradi.

Ləjliniꞑ vəsijatlariga muvafiq, har ikkilariga ʙir gor, ʙir kafan qiliʙ, ʙir taʙutga saliʙ komadilar. Ja'ni:

**Bir nəişqa saldilar ikavni[1];**
**Çansiz kelinu oluk kujayni.**

[1] Nəiş - taʙut.



Taşkent Arpapaja mahallasida jaꞑi maktaʙ.

Foto Penson

elimiz ʙasqincilar ʙilan kuraşiʙ, ularni qaƣirdi. Lekin meniꞑ atam va anamdan həli darak joq edi. Xuftan palladа anamniꞑ olugini atam jana ʙir neca kşi ujimizga aliʙ kelişdi. Anamni ʙasqincilar pcaqlaʙ taşlaptí. Men jiƣladim, atam, ukalarim jiƣlaşdilar. Ertasiga anamniꞑ olugini komdik. Şundan kejin anasiz ikki jil umr otkazdim. Ukalarimni xuddi anamga oxşaʙ parvariş qiliʙ ostira başladim. Jaşim 16 ga qadam qojdi. Bir kun aqşam pallada ukalarim havli juzida ojnaşiʙ turudi. Men ʙosam qazan tagiga ot jaqiʙ ajvanda xamir jazajatgan edim. Atam otun tergani ketiʙ qajtiʙ kelganca joq edi. Birdan at tujaqlariniꞑ avazi keliʙ qaldi. Elimizniꞑ kşilari qicqira ʙaşladilar. Şu taʙdajaq har ikki ukam tikan arasiga kiriʙ ketdi. Men ham endi qacişga hazirlaniʙ turgan edim, ʙirdan peşanasi tanƣilgan, qara atga miniʙ algan ʙir jigit xuddi şamaldaj uciʙ ʙizniꞑ devaldan aşiʙ tuşdi. Kela saliʙ, xuddi ʙurgut snari, menga caꞑ saldi. Saclarimdan ʙuraʙ, atga oꞑariʙ aldi-da, atga ʙir qamci uriʙ «hajt» deʙ ʙir tavuş ciqardi. At uciʙ qajaqqadir aliʙ qacdi. Bir çajga aliʙ ʙariʙ taşladi. Qolimni ʙaƣladilar. Bir vaqt qarasam katta ʙir qir ʙaƣrida elimizniꞑ ʙir neca kşilari ʙilan turganimni kordim».

Baxtiniꞑ quсaƣiga ipdan tikilgan topni ojnaʙ otirgan ʙalaniꞑ qolidan top tuşiʙ ketdi. Bala inçiƣlandi. Baxti ʙalaniꞑ qoliga topni aliʙ ʙeriʙ jupatdi. Anzirat apa ʙilan Ajşa kampir Baxtiniꞑ soziniꞑ davamini eşitişga şaşmaqda edilar. Baxt davam etdi. «Hamma jaqni qaranƣiliƣ ʙasti, asmanda aj joq edi. Kşilar ʙir-ʙiriniꞑ aftini pajqamas edilar. Basqincilarniꞑ qalganlari ham ʙizniꞑ todaga keliʙ qoşildilar. Hammamizniꞑ qolimizni arqaga qiliʙ ʙaƣlaʙ, jana 4 tadan qiliʙ ʙiriktiriʙ ʙaƣladilar. Ular ʙizni qurşaʙ aliʙ, qamcin ʙilan uriʙ, hajdaj ʙaşladilar. Kecasi ʙilan jol juriʙ ajaƣimizda ajaq qalmadi. Bir neça kşilar jolda kaltak zarʙidan oliʙ qaldi. Ƣra-şra taꞑ atganida, ʙir taƣniꞑ ʙaƣriga jetiʙ keldik. Hammamizniꞑ xalqumimiz quriʙ, çuda suvga taşna ʙoliʙ ketgan edik. Kelgan çajlarimizda komkok suv ʙulaqdan qajnaʙ ciqmaqda edi. Əmma hec qajsimizga suv icişga qojmajdilar. Bu jerda ʙizni hajdaʙ kelgan kşilarniꞑ ʙir nectasi qaliʙ ucta katta qazanda şorva pişiriʙ turgan ekanlar. Qollarimizni ʙoşatdilar. Ajallarni ʙaşqa—erlarni ʙaşqa qiliʙ açratgac, jalanƣac qiliʙ, ʙittadan qamci uriʙ «kimniꞑ qulisan!?» deʙ soraq ʙerdilar. «Taqsir sizniꞑ quliꞑiz» deʙ çavaʙ alganlaridan soꞑ taşna ʙolganlarga suv icişga içazat ʙerildi. Kejin hammamizni otqaziʙ ʙittadan nan, ʙir kasadan şorva ulaşa ʙaşlaşdi. Qarnimiz ac edi. Əmma tamaqdan hec narsa otkisi kelmas edi. Ajniqsa meniꞑ tamaƣimdan hec narsa otmasdi. «Ukalarimni nma qilgan ekanlar, atam esan-aman qaldimikan? deʙ xajal suriʙ otirmaqda edim. Bir vaqt erlar otirgan tamanga qarasam atam aldiga qojilgan şorvasini icmaj menga qaraʙ turiʙdi. Uniꞑ kozlaridan duvillaʙ jaşlari aqiʙ ketmaqda edi. Atamni korgac ʙutun ʙadanlarim çimirlaʙ ketdi. Men ham jiƣlaʙ juʙardim. Ancagaca atamga termuliʙ qaraʙ qaldim. Aramiz anca alis edi. Buniꞑ ustiga ustimizda qamci uşlaʙ turgan kşilar ʙir-ʙirimiz ʙilan sozlaşişga sra jol qojmas edilar. Faqat ʙiz koz jaşimiz ʙilangina sozlaşa alar edik. Xuddi şu pajtda «şorvaꞑni ic!» deʙ atamniꞑ jelkasiga ʙir qamci tuşdi. Atam ʙecara nailaç mendan kozini uzdi».

Baxtiniꞑ opkasi toliʙ gapiralmaj qaldi. Kozlarida çiqqa jaş pajda ʙoldi. Ajşa kampir ʙilan Anzirat apaniꞑ kozlari ham jaş algan edi. Baxti ʙir az ozini tutiʙ algac sozini davam etdirdi.

«Biz taƣ ʙaƣrida namazgargaca turdik. Kejin torttadan qiliʙ ʙaƣlaʙ hajdaʙ ketdilar. Şundaj qiliʙ ʙir neca kun deganda Qaşqar şahriga jetiʙ keldik. Bizniꞑ «qullar saraji» deʙ ataladigan saraiga çajladilar. Bu jerga kelganda qizlarni ʙaşqa, ajallarni ʙaşqa, jigitlarni ʙaşqa, qarilarni ʙaşqa qiliʙ açratdilar. Əmma kopcilik adam ortasida atamni sra koralmadim. Meni ham ʙaşqa qizlarga oxşatiʙ juvuntirdilar, caqmaqi telpak, kimxaʙ ton kijiziʙ qizlar satiladigan xanaga aliʙ kiriʙ qojdilar. Bu xanada men faqat ikkita hamqişlaq qizimni tanijaldim. Başqalari menga taniş emas edi. Biz ham glam ustiga qatar tizilişiʙ otirar edik. Janimizga ʙirin-ketin kşilar keliʙ telpagimizni kotariʙ, jurqiziʙ kora ʙaşladilar. Bir vaqt meni xoçajinlardan ʙiri keliʙ «jur» deʙ jetaklaʙ taşqariga aliʙ ciqdi. Kejin mendan kijinlarini jectiriʙ aliʙ ənə şu xoçajin Keldiʙajga tapşirdilar. Bir neca kun at va tujaga mingan kşilar ʙilan jol juriʙ su jerga jetiʙ keldik».

— Ataꞑ qajjerga satildi ekan—ə? deja Ajşa kampir soraq ʙerdi.

— Xuda ʙiladi ana, endi juz koriş qajaqda...—dedi Baxti va koz jaşlarini ərtiʙ, jana nmanidir gapirmakci ʙoliʙ aqiz çuplagan edi. Xoçajinniꞑ ujidan «Baxtiju...» degan tavuş eşitiliʙ, Baxtiniꞑ sozini kesdi. Baxti darrav turiʙ ʙalani kotardi va gursillaʙ juriʙ ciqiʙ ketdi.

**Ƣafurçan Rasul**



Farƣana oʙlasti, Namangan rajonidagi «Bolşevik» kolxozida avqatlaniş vaqti.
OzTAG fotoxronikasi.



Ortaq Sereʙrennikov (ortada) ixtra' qilgan apparati plevrevmodenomometr aldida.

niŋ qollanişi toqrisida konsultatsija ʙeriʙ juradi.

Vadim Pavlovic Sereʙrennikov 1936 jildan direktorlikni taşlaʙ, Taşkent ʙirinci sillar şfaxanasi va Almazardagi sil şfaxanasida daimij konsultant ʙoliʙ xizmat qiladi. Hazir despansir va uniŋ qaşidagi statsionarda 21 doktor xizmat qiladi. Şularni işga saliʙ, ozi kopraq ilmij işlar ʙlan maşqul ʙoladi.

Doktor Sereʙrennikov ʙirgina taşkilatci, ʙirgina taşaʙʙusci emas, u navator, xalqni sildaj kasaldan saqlaş jolida tinmaj jaŋi-jaŋi narsalar ixtira qiluci ʙir kşi. Uniŋ qimmat ʙaha jaŋiliklariniŋ hammasini jaziʙ otirmajlik. Faqat qisqa qiliʙ ikkita narsasi taqrida ajtiʙ qojaqalajlik.

Hazirgi vaqtda sil kasaliniŋ unca eskirmaganlarini davalaşda dunja ʙojica pnevmotoraks, ja'ni opkani oraʙ turgan ikki qaʙat plevirniŋ ikkalasi arasiga ma'lum apparat vasitali saf hava juʙariliʙ, opkani siqiş joli ʙlan davalaş qollanadi. xastalangan opka harakatsiz, opkaniŋ jarasi siqilgani halda qaliʙ jaraga et una ʙaşlajdi va Kok kaltakcasi et arasida qaliʙ ketadi.

Braq ʙu apparatniŋ ʙir qatar kamciliklari ʙar edi. Avvala şu davalaş işiniŋ fajdasi qancalik ʙolajatganligini faqat kasalniŋ taşqij alamatlari, uniŋ isitmasi va hakazalarga qaraʙ aniqlanar edi. Ikkincidan kasalniŋ tamam tuzalganligini aniqlaʙ ʙolmas edi. Pnevmotoraks arqasida plevirda qandaj ozgarişlar ʙolajatganini oz vaqtida ʙiliʙ ʙolmas edi. Hatta kop vaqtda ʙularni aciq korsatişda rengin nurlari ham açizlik qilar edilar. Xususan çuda jaŋi ʙaşlangan kasalni ʙilişda rengincilar anca adaşar edilar.

Ortaq Sereʙrennikov plevropnevmotodenomometr namli ʙir apparat ojlaʙ tapdi. Bu apparat ikki qismga ʙolinadi. Birinci qismi ʙlan plevirlar arasiga hava juʙariladi, ikkinci qismidagi termoelektr jignasi arqali plevir icidagi tempraturani ozgarişni ʙiliş joli ʙlan kasalniŋ hamma halatini aniqlaʙ ʙoladi. Bu apparat dunja ʙojica sil kasaliniŋ davalaşdagi eŋ asasij kamcilikni joqatişga imkanijat ʙeradi.

Bu apparat Moskva ilmij tekşiriş muassasalari deskussijasidan va tekşirişidan otiʙ, hazir kop miqdarda tajjarlaniʙ, işlatilmaqda. Uniŋ narxi ham 350-400 somdan aşmajdi. Ilgari faqat penevmoraks apparatiniŋ ozini altin hsaʙi ʙlan 180 somga cet eldan alinar edi.

Hazir doktor P.V. Sereʙrennikov sil kasalini fiziologik jol ʙlan davalaş toqrisida ilmij iş aliʙ ʙarmaqda. Sil kasali kapitalizm mamlakatlarida hsaʙsiz işci va deqanlar, joqsul zjalilar, ʙaşqa mihnatkaşlarniŋ jastiqini quritiʙ turadi. Revolutsijaga qadar ʙizniŋ mamlakatimizda uniŋ ʙlan kuraş hec ham ʙolmagan. Xalq ozi ʙilganica u kasaldan ozini saqlaʙ kelgan. Braq ʙiz ʙilamiz, xalq kop vaqt ʙir narsani tapar ekan, ʙiliʙ tapadi. Sereʙrennikov ajtkanica «silni davalaşda ham danişmand xalq tapgan davalardan ʙiliʙ fajdalansak, dard qalinmajdi!»

Ilgari vaqtda va ʙa'zi jerlarda hazirda ham xalq silni davalaş ucun eşak sutidan fajdalanadilar. Eşak suti fanniŋ tekşirişi arqasida aniqlanişica ana sutidan hec farq qilmas emiş. Undan taşqari şunisi açajiʙki, dunjada at, ajniqsa sgir sil ʙlan xastalanadi. U kasalniŋ adamlar ortasida kop vaqt oz sutlari arqali tarqatadilar. Braq eşak ʙu kasal ʙlan hec xastalanmajdi. Şundan ma'lum ʙoladiki, eşakniŋ qanida sil mekroʙiga qarşilik qiladigan ʙrar madda ʙardir. Agar eşak tanasiga kucsizlantirilgan sil mekroʙini sun'i juʙariş joli ʙlan qandagi həligi madda kopajtirilsa, u madda, şuʙhasiz, sut tarkiʙida ham kopajadi va uniŋ sil mekroʙiga qarşi kuci jana aşadi.

Mana şundaj sutdan ʙiliʙ fajdalanilsa, şuʙhasiz çuda kop olum kutiʙ jurgan kasallarni davalaʙ, ularga hajat va ruh ʙeriş mumkin ʙoladi. Ortaq Sereʙrennikov ajtişica jaqinda zatdar eşaklar firmasi tuziliʙ, ʙrarta şfaxanada əməlij taçriʙalar otkazilmaqci. Ajniqsa ʙir jatkanda 6 aj, 8 aj, ʙir jil calqamca qalgan sujak sillarini ʙirinci martaʙa davalanilmakci. Haqiqatan kozini şipga tikiʙ jatgan ʙecara ʙemarlar tezraq turiʙ ketar ekan—qanca şadlik, qanca minnatdarlik ʙoladi.

Ortaq Sereʙrennikov mihnat qahramani. 1934 jilda unga ʙu unvan ʙerilgan. U, Stalin Konstitutsijasi nuri astida kşilar har ʙir tlak va arzusiga jetaalişini ʙiladi. U navatorlikda, kşilarga maslahat ʙerişda, jaş doktorlarga jol-joruq korsatişda, despansirniŋ taşkilij işlarini aliʙ ʙarişda rahʙarlik qiliş va ʙaşqa işlarda hec ham carcamajdi. Kun demaj, tun demaj işlajdi.

**A. Ataʙekov.**

# KATTA FARƢANA KANALIGA SUV QUJIŞ TANTANASI

*Ortada—Narin rajon, Stalin namli kolxozniŋ a'zasi, Katta Farƣana kanalida staxanovci ketmanci ʙoliʙ işlagan va Lenin ordeni ʙilan mukafatlangan ortaq Donan Dosmatov*

Penson fotosi.

















**Suratda:** Ərmən filarmonijasi qaşidagi Ərmən aşula va raqs davlat ansamʙli «Vern» raqsini içra qilajatir.

*Prof. A. Ter Gevondjan*

Ərmənistan SSR xizmat korsatgan san'at arʙaʙi

# ƏRMƏN XALQINIŊ SAN'ATI

Meniŋ vatanim—jer şariniŋ gullajatgan kickinagina ʙir qismi-jaşil vadilar va cuqur taq aralaridan iʙarat olka ʙoliʙ,—otmuşda tugalmas qanli çaŋlar majdani edi. Ərmənistan ustidan Eran şahi Dariniŋ qoşuni, Rim legioni, Ciŋizxan, Temurlan, araʙ, tatar, turk va ʙaşqalarniŋ askari ʙasiʙ otgan.

Ərmən xalqi oziniŋ kop asrlik tarixida ʙir neca martaʙalaʙ oz mustaqilligini joqatgan. U, qan, janqinlar tutuni icida juziʙ oz vatanini tikladi, juksak san'at asarlari jaratdi.

Ərmənistan eŋ qimmatʙaha asari-ətiqa jadgarlari mamlakati hsaʙlanişga haqli ʙir mamlakat. Unda ʙeşinci, altinci, jettinci əsrlarda qurulgan ʙnalar saqlangan. Bu qadimgi ərmən madanijatiniŋ gullagan — «Altin əsr» namini algan davri edi.

Ərmənistanniŋ hazirgi pajtaxti Jerevandan igirma caqirim nəridagi—Vagarşapte (saʙiq Ecmiadzin) şahrida eski monastir devallari turadilarki, ʙu monastir ʙeşinci asrdan ham ilgari qurulgan ʙolişi ihtimal. Ecmiadzin monastriniŋ devallariga nazar taşlaganda eŋ qadimgi Ərmənistan arxitekturlariniŋ juksak san'atiga hajratda qalmaj ʙolmajdi.

Ecmiadzinda qadimgi qoljazmalar saqlanadigan maşhur davlat kutuʙxanasi ʙar. Bu kutuʙxana ʙir jarim miŋ jilga jaqin jaşaʙ keladi. Unda onʙir miŋdan aşiq qoljazma saqlanadi. Qadimgi zaman madanijatiniŋ mana şu açajiʙ materiallariniŋ kopi ʙir nusxadandirlar. Ular teriga jazilganlar. Qoljazmalarda Kavkaz, Monqolija, Hindistan, Vizantija, Eran xalqiniŋ tarixi ta'riflanadi. Terilar ustidagi xatlar arxitektura, san'at, harʙij strategija, xalqlarniŋ hajati va ahlaqini aciq korsatadi, oşa davrdagi hazir joq ʙoliʙ ketganiga kop vaqtlar ʙolgan şaharlarni mufassal ravişda jazgan. Kimija, astronomija, meditsina, matematika, geografija fanlari ʙojica tekşirişlar, ilmij ixtiralar haqida jazilgan asarlar qol jazmalarniŋ kopgina ornini egallajdi.

Kop qoljazmalarniŋ muqavalari altin va kumuş suvi juritilgan ʙoliʙ, muqavalar nafis va ʙadiij işlanganlar. Qoljazmaniŋ xatlari esa, turli rasmlar ʙlan ʙezatilgan ʙoliʙ, ular qadimgi san'at namunalarini korsatadilar. Bu qadimgi miniatjuralar janigina ʙojalgandaj jaltiraʙ, rangini ʙizniŋ kungaca joqatmasdan saqlaniʙ kelganligi kşini hajratda qaldiradi (Moskvada vistavkada ərmən san'ati dekadasi kunlarida qadimgi Ərmən miniatjuralariniŋ eŋ jaxşi namunalari qojilgan).

Otmişniŋ ʙu jadgari ərmənlarniŋ avvaldan juqari madanijatli, sonmajdigan içadga ega danişmand ʙir xalq ekanligini jaqqal korsatadi.

Ərmənistanniŋ tarixi xalq dastanlari, qoşuq, ertaklarda aks etdirilgan. Bizniŋ xalq hamma vaqt qoşuqdan açramaj jaşardi. Ərmən xal-

ƣiniꞑ əsrlar ʙoji mihnat va kuraşida, qahraman çaꞑlarida, xursandcilik va qajƣuli vaqtlarida qoşuq uniꞑ joldaşi ʙoliʙ kelgan.

...Men jaşligimda çuda kop eski qoşuqlar eşitkanman. Ularniꞑ gah qahramanana şiddatli, gah lirik məjin, addij ahaꞑlari umrimniꞑ axirigaca esdan ciqmajdigan, ʙir iz qaldirdilar. Meniꞑ Ƣizrar-çun titucilarniꞑ aşulalarini eşitkanim ʙar, ular oz ciƣriqlari ʙlan qişlaqma-qişlaq çun titiʙ juriʙ deqanlarga afsana, ertaklar ajtiʙ jurardilar. Meniꞑ, aşiqlar— ʙu çuda açajiз xalq şairlari, musiqaşunaslarniꞑ qoşuqlarini eşitganim ʙar.

«Aşiq» degan soz araʙca ʙoliз,



Artistka Araksja Ananjan «Almast» operasida Gajane rolida.

Ananjan «Mihnatda ornak korsatgani ucun» medali ʙlan mukafatlandi.

uniꞑ ma'nasi «sevguci» demakdir. Aşiq içadlariniꞑ asasij tematikasi vatanga sevgi, duşmanga nafrat, fajlasofana va'z-nasihat va kşiniꞑ juragiga ta'sir qiluci lirikalardan iʙarat.

Ərmənlarda maşhur aşiq Sajat-Nova ʙoliз, u, onsakkizinci asrda jaşagan. Uniꞑ içadi cuqur gumanistik



Ərmən Davlat opera va raqs teatriniꞑ xizmat korsatgan artistkasi Ajkanuş Danieljan «Anuş» operasida Anşu rolida.
Danieljan Lenin ordeni ʙlan mukafatlandi.

edi. Sajat-Novaniꞑ ʙir şi'rida şundaj dejiladi.

«Agar dunjaniꞑ hammasi seniki ʙolsa, undan nmalar alar ediꞑ? Sen meniꞑ maslahatimga qulaq sal: Sen ktaʙni sev, jazuvni sev, qalamni sev, adil ʙol, cdamli ʙol, kamʙaƣallarni sev, mihmanni sev, musafirni sev, Sajat, agar ruhiꞑ ucun çaniꞑni ʙeraalsaꞑ sen ʙaxtijarsan!»

Sajat-Nova toquci kasiʙ edi, undan sarajda aşula ajtiʙ, muzika caluci ʙoladi. Bujuk aşiƣ ozini sarajda jalƣiz va jat deʙ his qiladi. U, qoşuqlari ʙlan oz davriniꞑ tartiʙsizliklarini qattiq kaltaklar edi. Aşiƣniꞑ ʙundaj andişasiz qoşuqlari hukmranlikni jaxşi korgan feodalga jaqmasdi. U, Sajat-Novani kuclaʙ monastirga kirgizdi. Aşiƣ monastirniꞑ nursiz devarlari arasida jgirma ʙeş jilga jaqin qaliз ketadi. Lekin u ʙu jerda ham azad qoşuqci şair ʙoliʙ qaldi, uniꞑ ƣazaʙ, nafrat ʙlan tolgan şi'rlari muhaʙʙat, hajat va gozalliklar madhini qilar edi.

Kozga koringan ərmən aşiƣlaridan ikkincisi Dzivanij ʙoliʙ, u 1909 jilda oldi. Çuda əçajiʙ şair grazdan Dzivanij jarim asrga jaqin umrini oz san'a'tiga ʙerdi. Uniꞑ daimij auditorijasi işcilar, kasiʙlar va kamʙaƣallardan iʙarat ʙoliʙ, sevikli şairniꞑ ustaligiga qajil qalardilar.



Artistka Tatevik Sazandarjan «Almast» operasida Almast rolida.
Sazandarjan Mihnat qzil ʙajraƣi ʙlan mukafatlandi.

Uniꞑ içadiniꞑ mazmuni—xalq taqdirini ojlaş, xalqniꞑ nahaqliqqa qarşi muꞑli hasratlarini kujlaş, millij qullikka qizƣin narazilik ʙildirişdan iʙarat edi. U, oziniꞑ qoşuqlari vasitali, ruhanijlar, satqin sudjalar, tekinxor ʙajlarniꞑ sirini dadil faş qilar edi.

Hazirgi ərmən aşiqlari — Dzivanij ən'ənəsini davam eldirucilardirlar. Juzlaʙ aşiqlar hazirgi vaqtda ʙaxtijar vatan, Stalin Konstitutsijasi aftaʙi astidagi jaꞑi, parlaq hajat kujini kujlajdilar. Başlaridagi quvancli kunlar haqida jgirma uc jaşli Zeʙet ham,

Ərmənistan SSR Alij sovet deputati keksa Grikor ham kujlajdi. Moskva ərmən dekadasi vaqtida aşiqlarniŋ eŋ jaxşi kujlari namunalari вlan tanişdi.

Meniŋ kop kulfat, azaв cekkan vatanim gullagani kaвi, aşiqlarniŋ qadimgi san'ati ham jaŋidan gullamakda. Goja jaqindagina jaruqliqsiz qaranqulikka, gadajlikka va huquqsizlikka taşlangan Ərmənstan oziniŋ juqari madanijatini joqatgan edi. Uniŋ otmişidan faqat qədimgi asari-atiqa jadgarlari va xalq qoşuqlarigina esdalik вoliв qaldi. Faqat jigirmanci asrdagina xalqniŋ вa'zi talantli oqullari katta san'atkar rassam вolişiв, vatanniŋ eski san'atiniŋ juksak ən'ənəsini вutun çahan esiga saldilar.

Xalq qoşuqlaridan uc miŋdan artiqraqini jaziв ciqqan maşhur kompazitor va maşşaqi, tanqidci va etnografi Komitas 1906 jilda, Parizda ərmən xalq muzikasiga вaqişlangan konsertlarda iştirak etdi. Oşa vaqtdagi «La revul musicale» degan zurnal вu konsert haqida şundaj jazgandi:

«Ərmən muzikasi taвiij gozalliklar вlan tolgan. Qoşuqlarniŋ ta'sirli tolqunlangan lazzati avç va daramadlarniŋ melodik ciziqlariniŋ pastdan juqariga va juqaridan pastga tuşuşlaridagi nafasat, ritmalarniŋ plastik xususijatlari вlan, — вu muzika juraknin ozginasidan ciqadi, u, atiliв ciqajatgan saf suvdaj qujiladi, —kucli, şaffaf, jaruqdir».

***

Ərmənistanniŋ maşhur kompozitorlaridan ajniqsa A. A. Spendiarovniŋ (1871—1928) içadi xalq kujlarini ammalaştirişda katta rol ojnadi.

Maşhur rus kompozitori Rimskij-Korsakovniŋ şagirdi A. A. Spendiarov oziniŋ xalq muzikasi haqidagi cuqur вilimini javropa kompozitorlik ustakarligiga keltiriв qoşdi.

A. A. Spendiarov oz avtoвiagrafijasida şundaj dejdi:

«Men ozimni Glinko, Balakirov, Borodin, Rimskij—Korsakov va вaşqalar tamanidan taşkil qilingan rus maktaвiga mansuв deв hsaвlajman. Menga kopinca şu kompozitorlarniŋ içadlari jaqardi. . .»

A. A. Spendiarov — вirinci ərmən operasi maşhur ərmən şairi Ovanes Tumanjanniŋ «Tmkaвertniŋ aliniși» poemasidan aliв jazilgan «Almast» niŋ avtoridir.

Bu opera Ərmənistanniŋ otmişdagi qahramanligini tasvirlajdi. Undagi vaqia onjettinci asrniŋ axirida вoliв otadi.

. . .Nadirşahniŋ qoşuni Ərmən ordasini qirq kun muhasara qiladi. Lekin qalaвadar Eran şahiniŋ aciq kuraş вlan almaqci вolgan ,nijati uniŋ qoşuni tar-mar вolişi вlan tugadi. Buni korgan Nadirşah hijla вlan iş korişga qarar qiladi. U, ordaga oziniŋ aşiqini juвariв, unga hukumranlikni sevuci — ərmən knjazi Tatulniŋ xatini Almastni xatinlikka məjl qildirişni tapşiradi. Nadirşah oziniŋ aşiqi arqali Almastni oziga xatinlikka alişga, çani-dili вlan uni sevişka va taçtaxtini вerişga va'da qiladi.

... Ərmən qoşuni navвatdagi qalaвadar çaŋlaridan qajtiв keliв ajş-işrat, ojun kulki qiliв oturgan pajtda Almast orda eşigini aciв juвaradi. Eranlilar ərmən ordasiga вasiв kiradilar va Tatulni oldiradilar. Lekin ərmənlar ozlariniŋ laşkarвaşilari Ruвen va Gajan вaşliq eranlilar huçumini rad qiladilar. Ərmən qoşuni Nadirşahniŋ qaciв вarajatgan askarini quviв ketadi. Xalq xain Almastga вir aqizdan nafrat oqujdi va uni olumga hukum qiladi.

Ərmən klassigi Ovanes Tumanjan sjuzeti asasida jazilgan ikkinci opera «Anuş» — hazir hajat вolgan keksa ərmən kompozitori — Ərmənistan va Gurçistan SSRlarida xizmat korsatgan san'at arвaвi Arman Tigranjan tamanidan jazilgan.

«Anuş» —Lorij (Ərmənistan rajoni) deqanlari hajati haqida lirik opera. Bunda taq qizi Anuşniŋ jaş copan Saroga tragik muhaввati toqrisida sozlajdi. Uniŋ muhaввati çuda koŋilsiz tugajdi. Uniŋ sevgani Anuşniŋ akasi tamanidan oldiriladi. Anuş qajqiraвeriв çinni вoladi va axiri ozini taq tepasidan aqin suvga taşlajdi.

***

... 1920 jil, 29 nojaвr kuni — Ərmənistanda Sovet hukumati qurulgan kun—ərmən tarixiniŋ madanijati jaŋi davr acgan вir kundir. Grazdan uruşiniŋ topalanlari вasilişi вlan-naq Jerevanda ərmənlərniŋ вirinci muzika studijasi acildi.

1932 jilda A. A. Spendiarovniŋ «Almast» operasi qojilişi вlan Ərmənistan davlat opera teatri aciliв, ərmən muzika klassigi namini aldi.

Spendiarov namidagi teatr Moskva san'at dekadasiga tortta postanovka aliв keldi: «Almast», «Anuş», «Lusaвatsin» operalari va «Baxt» вaleti.

Bundan вir jil muqaddam Jerevanda Spendiarov namidagi Davlat opera teatri kompozitor Aro Stepanjan tamanidan jazilgan «Lusaвatsin» («Taŋ atganda») degan вirinci sovet ərmən operasini sahnaga qojdi. Operada temir jol depo işcilariniŋ вolşevik Grikor rahвarligi astida qandaj qiliв ujuşgani va qalaвadar qozqalanlari вaşlangani ifadalanadi.

Ərmən dekadasiniŋ tortinci spektakili «Baxt» вaleti edi.

Bu вaletniŋ muzikasini kompazitor Aram Xacaturjan çuda qisqa muddat icida—alti ajda jaziв вoldi. U, Jerevanga keliв, ərmən xalq raqslarini zor diqqat вlan organdi. Populjar melodijalarni jaziв вardi.

Opera teatridan taşqari Moskvaga xalq muzika asвaвlariniŋ orkestri, xalq raqs va aşulalariniŋ ansamвili, Ərmənistanniŋ davlat kapellasi, aşiqlar ansamвili, Komitas namidagi kvartet va вaşqa kollektivlar keldi.

SSSR pajtaxtida ərmən xalq san'atini korukdan otkazganda sakkiz juzdan artiq artist, xalq kujcilari, muzikantlar, ojuncilar qatnaşdi.

**Uteşev tarçimasi**



Ərman filormonijasi qaşidagi aşula va raqs davlat ansamвli «Oj-nazan» raqsini içra qilajatir.




(Ertak)

Qadimgi zamanlarda Msir jurtida Ma'ruf jamaqci degan ʙir adam jaşar ekan.

Ma'rif jamaqci faqat jamaqcilik va eski-tuski kavuşlarni jamaş ʙlan kunini araꞑ otkazar ekan. Ma'ruf mahalla imaminiꞑ da'vati ʙlan Ruzvan degan 30—31 ga kirgan ʙir xatin ʙlan turmuşga ciqiʙdi. Ruzvan atin ƣajat daraçada friʙgar, aldamci ʙoliʙ, xurafat ʙlan şuƣullaniʙ, xatin-qizlarniꞑ kocirma qiliş, fal koriş ʙlan kun otkaziʙ kelar ekan.

Ruzvan atin Ma'rufniꞑ kundalik jamaqcilik ʙlan tapganiga qanaat qilmasdan çanidan ʙezar qiliʙdi.

Bir kuni Ma'ruf jamaqciga jamaq saliş ucun hec qandaj pajafzal kelmasdan, ujiga quppa-quruq qajtiʙ keliʙdi. Buni korgan Ruzvan atin Ma'rufniꞑ ujga kirişiga jol ʙermasdan, qarƣaʙ-qarƣaʙ hajdaʙ ciqariʙ juʙariʙdir.

Ma'ruf ham çanidan ʙezar ʙolgan ekan. Msir şahridan ʙaş aliʙ ketiş ucun Xutan şahriga çonavci karvaniar ʙlan qoşiliʙ, ularniꞑ tuja, atlariga qaraʙ, mallariga qaravul ʙoliʙ, azaʙuquʙat ʙlan Xutan şahriga kiriʙ keliʙdi.

Ittifaqa Xutan şahrida Ma'rufniꞑ qarindaşlaridan Əli degan ʙir savdagar ucraʙ, uni ujiga aliʙ ʙariʙdi. Darhal Ma'rufni hammamga aliʙ ʙariʙ, jaꞑi kjimʙaş kijdiriʙ, katta zjafat ʙeriʙdi.

Ertasiga Ma'rufga şaharda alahida dokan aciʙ ʙeriʙdi. Miꞑ tillani unga dastmaja qiliʙ ʙeriʙ qojiʙti.

Ma'rufniꞑ qoli çuda aciq ekan. Uniꞑ aldiga tlaniʙ kelgan gadajlardan ʙiriga ʙir tilla ʙeriʙdi. Jana ikkinci ʙir gadaj kelganda unga ham ʙir tilla ʙeriʙti. Xullas şu kun miꞑ tillani şahardagi gadajlarga ʙeriʙ tamam qilipti.

Ertasi Əli jana miꞑ tilla ʙeriʙ, ʙundaj iş qilmasligini Ma'rufga tuşuntiripti. Ma'ruf ʙunga qulaq salmasdan, jana Əli tamanidan ʙerilgan miꞑ tillani şahar gadajlariga ʙitta-ʙittadan ʙeriʙ tamamlaʙti Ma'rufniꞑ avazasi Xutan padşasiniꞑ qulaƣiga ʙariʙ jetgac, padşah uni oz huzuriga caqirtirdi. Ma'rufniꞑ kelişiga dasturxanlar tartiliʙ, raꞑʙa-raꞑ taamlar hazir qilindi. Taamdan soꞑ padşah Ma'ruf jamaqcidan qajsi şahardan kelganini, nma iş qilişini soradi.

Ma'ruf ornidan turiʙ, ta'zim qiliʙ, oziniꞑ katta savdagar ekanligini ʙajan qildi. Padşah Ma'rufni snaş ucun qolidagi uzugini ciqariʙ, uniꞑ qandaj taş ekanini, narxi qanca turuşini soradi.

Ma'ruf darhal uzukni aliʙ, tişi ʙlan kormaqci ʙoliʙ sindiriʙ juʙardi. Padşahga qaraʙ: — Padşahim, ʙu jaramas taş ekan, ʙahası miꞑ tillaga arzimajdi. Menda 100 miꞑ altinga arzijdigan asl taşlar ʙar, dedi. Padşah uzukni miꞑ tillaga algan ekan. Buniꞑ u qadar qimmat turmasligi haqidagi Ma'rufniꞑ sozini toƣri deʙ tapdi.

Padşah vazirlari ʙlan maslahatlaşiʙ, Ma'ruf ta'rif qilgan «100 miꞑ tillali qimmati ʙaha taşlari»ni almaqci ʙoliʙ, oz qizi Çahanara Parini unga ʙermaqci ʙoldi.

Vazirlar Ma'rufga padşahniꞑ Pardaij Ismatdagi jagana qizi Çahanarani xatinlikka alişini iltimas qildilar. Braq Ma'ruf padşahga «meniꞑ mallarim, tujalarim jolda, ular kelgandan kejin toj qilsak qalaj ʙolar ekan desa ham qojmadilar va qirq kecaju-qirq kunduz toj-tamaşa qiliʙ, Ma'rufga padşah qzi Çahanarani aliʙ ʙerdilar.

Ma'ruf Çahanara ʙlan uc aj turmiş kecirdi. Padşah undan «qacan mallariꞑ keladi»deʙ sorasa Ma'ruf «ʙugun-erta» ʙlan padşahni aldaʙ, axirida ʙir kuni «karvanlarimdan ozim xaʙar aliʙ kelmasam ʙolmajdi» deʙ Xutan şahridan ciqiʙ, ʙadar ketdi va şu jol ʙlan oziniꞑ çanini saqlaʙ qalmaqci ʙoldi.

Ma'ruf jamaqci Xutandan qaciʙ, anca jol otdi. Bu vaqt ʙahar caqi ʙaliʙ deqanlar ʙuƣdaj ekiş ucun amac ciqariʙ, jer hajdaş ʙlan maşƣul edilar.

Ma'ruf anca jol juriʙ, çuda carcaʙ, darmandan ketdi. Carcaş va aclik unga azaʙ ʙerdi. Jolda kelaturiʙ ʙir deqandan nan va qatiq soradi. Deqan Ma'rufga qaraʙ, «oƣlim, meniꞑ ujim hav ənavi tepalikda, sen hokuzlarimga qaraʙ turgin, men ʙariʙ nan ʙlan qatiq aliʙ kelaman» deʙ ujiga jol saldi. Ma'ruf ʙir az istirahat qilgac, ornidan turiʙ «deqan kelgunca jerini hajdaʙ turajin» deʙ hokuzlar ʙlan jer hajdaşga tuşdi. Jer hajdaʙ ʙarmaqda edi. Ittifaqa amacniꞑ tişi ʙariʙ ʙir narsaga qadaldi. Ma'ruf şunca harakat qilsa ham hokuzlar juraalmasdan toxtaʙ qaldi. Ma'ruf oziga «Endi meni xuda urdi. Peşanam şor ekan, deqan kelsa nma çavaʙ ʙeraman»deʙ qajƣirdi va tişni ciqarmaqci ʙoldi. Lekin tiş ʙir marmar taşga ʙariʙ taqaliʙ qalganidan, sra silçimas edi.

Ma'ruf taşni kavlaʙ, tişdan nəriga surmaqci ʙoldi. Taşni zor ʙlan kotariʙ ʙir cetga irƣitdi. U korsaki, taş asti znəpajadan iʙarat cuqurlik ʙoliʙ, u, jer astiga qaraʙ ketgan ekan.

Ma'ruf oziniꞑ ʙaxtini snaʙ kormaqci ʙoliʙ, znəpaja arqali cuqurlikka tuşa ʙaşladi.

Znəfaja arqali anca jol juriʙ, jer astiga tuşdi. Qadami jerga tekkanda kozini aciʙ qaradi. Cunki jer astiga tuşiş joli tim qaraꞑƣi ʙoliʙ hec narsa kozga ilinmas edi.

Ma'ruf jer astiga tuşganida hamma jaqni xuddi kunduzdek jaruƣ halda kordi. Lekin ʙu jer astida nə craq ʙar edi va nə şəm! Ma'ruf xajranlikda qalgan va ʙuniꞑ saʙaʙini tuşunalmas edi. U eşik quʙʙalariga ornatilgan gavharlarni korgac ʙildiki, jaruƣlik şundan ekan.

Ma'ruf ʙu çajda qirq uj kordi. Bu ujlarniꞑ eşiklari qimmat ʙaha jaƣaclardan işlaniʙ, zanʙurij pardalar tartilgan edi. Şu ujlardan ʙiriga kirganida qatar-qatar turgan sandiqlarni kordi. Sandiqlarniꞑ kaliti ham aƣzida turar edi.

Ma'ruf darhal sandiqlardan ʙirini aciʙ qarasa ici altin, la'l, qimmat ʙaha taşlar ʙlan liq tola. Axirgi ujga kirdi. Bu uj hammasidan katta ʙoliʙ, ʙezaliş çhatidan ham açajiʙ, kşini hajratda qaldirarlik daraçada edi. Bu ujda sandiq va altin joq edi. Lekin ujniꞑ peşgahida ʙir taxt ʙoliʙ, ʙu taxt eꞑ qimmat ʙaha taşlar ʙlan ʙezatilgan edi. Taxt ustida ʙir kicik altin sandiqca,

# Aʙadij hajat qaladigan adam

Akademik Vasilij Roʙertovic Viljams 39-jil, 11 dekaʙrda vafat etdi. Agronomija ilminiꞑ entuziasti, talmas novator, açajiʙ tupraqşunas, Timirjazev qişlaq xoçalik akademijasiniꞑ professori, SSSR Alij Sovetiniꞑ deputati, ordenli ʙolşevik alimniꞑ juragi uruşdan toxtadi, lekin uniꞑ sovet agronomija ʙilimiga kiritgan çuda kop nadir içadlari aʙadij jaşajdi. Şu nuqtadan qaraganda Vasilij Roʙertovic Viljams olmagan va u aʙadi ravişda hajat qalaçaq.

Qadim zaman fajlasuflaridan ʙiri, adamlarni ikki guruhga ʙolgan. Uniꞑ ta'ʙirica adamlarniꞑ ʙir gruhi tirikligidajaq oladi, ja'ni ular çamijat ucun, kelgusi ucun hec qandaj manfaat keltirmajdilar, janilik jaratalmadilar. Bu ajniqsa kapitalistik tuzum ucun xasdir. Ikkinci gruh kşilar esa, olganlaridan kejin ham ma'nan mangi hajat ʙoliʙ qaladilar. Ja'ni ular tiriklarida jaratadilar, içad etadilar. Çamijat ucun, kelgusi ucun fajdalar keltiradilar. Bu içadlar, ʙu jaratular ular ozlari olganlaridan kejin ham jaşaj ʙeradi.

Akademik V. R. Viljams kejingi gruhniꞑ aldingi kşilaridan sanaladi. U Sovet agronomija faniga va sotsialistik deqanciligimizniꞑ turli sahasiga kirgizgan çuda kop janiliklari, içadlari ʙlan mangi olmas ʙoliʙ qaladi.

V. R. Viljams agronomija ʙiliminiꞑ revolutsioneri hsaʙlanar edi. U oz umriniꞑ jarim asrdan kopginasini şu sahaniꞑ eꞑ murakkaʙ va eꞑ muhim masalalarini həl etişga ʙaƣişladi. Tupraqni hasildar etiş va ʙu hasildarlikni saqlaʙ ʙariş va ʙaşqa ʙir munca masalalarda çuda katta muvaffaqijatlarga erişdi.

V. R. Viljamsniꞑ ilmij işlari eꞑ muhim proʙlemalarniꞑ çuda keꞑ qismini oz iciga aladi. U tupraqni mexaniceski analiz qilişniꞑ eꞑ takamillaşgan metodlaridan ʙirini ʙelgiladi. Oreginal metodlar ʙlan tupraq organik maddalarini uzaq muddatli ʙir davrda organiş V. R. Viljamsga tupraqda, uniꞑ rvaçlaniş protsessida organik maddalarniꞑ pajda ʙoliş va ozgariş teorijasini tuƣdirişga imkanijat ʙerdilar. Şu teorijaga sujaniʙ va turli osumliklarniꞑ ildiz sistemalarini uzaq muddat kuzatişlari arqasida Vasilij Roʙertovic kop jillik otcil osumliklarniꞑ hajatcanliklari tasirida tupraqniꞑ tuzuliş (struktura) hasil etiş teorijasini tuzdi.

V. R. Viljams çuda kop tupraqşunaslik ekspeditsijalarida iştirak etişi va ularga rahʙarlik qilişi arqasida SSSRniꞑ va Ƣarʙij Avropaniꞑ turli mintaqa tupraqlarini jaxşi organdi va çuda katta ilmij ahamijatga ega ʙolgan kop tupraq xillari namunalarini topladi. Bularniꞑ hammasi V. R. Viljamsga oz teorijasini tuzuşga materiallar ʙerdi.



Vasilij Roʙertovic deqanciliq masalasiga ham keꞑ ravişda qaraʙ ʙir jillik osumliklarniꞑ tupraq strukturasini tiklaşni ta'min etmasligini nazarda tutiʙ almaşlaʙ ekişga, kop jillik otlarni (dukkaklik va ƣallasman ekinlarni) kirgizişni tavsija etdi. Bu ʙlan Vasilij Roʙertovic mamlakatimizda ʙarca qişlaq xoçalik ekinlariniꞑ hasilini kotarişga, tupraq tuzulişini jaxşilaşga keꞑ jol aciş ʙlan ʙirga, carvaciligimizniꞑ taraqqij etişiga ham asasij ʙazani—jemxaşak ʙazasini ʙelgilaʙ ʙerdi. Şunday qiliʙ, mutaxassisligi tupraqşunaslik ʙolgan ʙu ʙujuk alim carvacilik sahasida ham alamşumul işlarni qildi.

Akademik Vasilij Roʙertovic Viljams 1863 jiliniꞑ 27 sentaʙrida tuƣulgan. Orta maktaʙni ʙitirgandan kejin u Moskva Petrovskij qişlaq xoçalik akademijasiga (hazirgi Timirjazev - akademijasiga) kiradi va unda professorlikka tajjarlaniş ucun qaladi.

Cet mamlakatlarga komandirovka ʙoliʙ, Pariz, Mjunxen, Berliniꞑ kozga koringan alimlari laʙoratorijalarida işlajdi. 1894 jili dissertatsijasini jaqlaʙ, qişlaq xoçalik faniniꞑ magistiri degan alimlik daraçasini aladi.

V. R. Viljams juqari qişlaq xoçalik ilmini va qişlaq xoçaligini kotarişga kop kuc sarf qildi. Braq uniꞑ ʙu ʙarca urunişlariniꞑ saʙiq padşah Rusijasida amalga aşisi mumkin ʙolmagan narsa edi. Vasilij Roʙertovic faqat Bujuk Oktaʙr sotsialistik revolusijadan kejingina ilmij işlari ucun keꞑ imkanijat qazandi. Çuda katta ilmij tekşiriş, pedagogik işlarni aliʙ ʙariş ʙlan ʙirga darsliklar, ktaʙlar, maqalalar va dokladlar jazdi. 1923 jili hukumatniꞑ tapşiriƣi ʙojica «Sojuzlar ittifaqida ot dalali almaşlaʙ ekiş asasida deqanciliqni qajtadan quruş planini» işladi.

Hukumat V. R. Viljamsniꞑ xizmatlarini taqdirlaʙ 1924 jili uni Mihnat Qzil Bajraq ordeni ʙlan mukafatlajdi. 1922 jildan ʙeri Moskva sovetiniꞑ, 1937 jildan ʙeri SSSR Alij Sovetiniꞑ deputati edi.

Vasilij Roʙertovic oz hajatiniꞑ 65 nci jilida (1928 jili) Lenin-Stalin partijasiniꞑ a'zasi ʙoliş istagini ʙildiradi va kommunistlar partijasi qatariga qaʙul qilinadi. V. R. Viljamsniꞑ ozi ajtgandaj, ʙu keksa alim partijaniꞑ jaş a'zasi ʙoliʙ kirgan kuni umriniꞑ eꞑ quvancli ʙir momenti edi.

Agronomija ilmi sahasida korsatgan nadir xizmatlari va ilmij, pedagogika ham ammavij-sjasij işlariniꞑ 50 jilligini taqdirlaʙ, 1934 jili hukumat V. R. Viljamsni Lenin ordeni ʙlan, 1936 jili esa, jana Mihnat Qzil Bajraq ordeni ʙlan mukafatladi.

**U. M.**

BUJUK ADAMLAR SAHIFASI

# ZƏHIRIDDIN BABIR

I

Zəhiriddiꞑ Muhammad Baʙir-Mirza 1483 jilda Andiçan şaharida tuƣildi. Uniꞑ atasi Farƣana hukumdarj Umar -Şajx Mirza Aqsaq Temurniꞑ oƣli Meranşahniꞑ evarasi edi. Umar Şajx Mirza oƣliniꞑ tarʙija va ta'limiga katta ahamijat ʙeriʙ u zamanniꞑ ilmlari ʙlan parvariş qildirgan edi. U jaşlik vaqtidan strategija (harʙij) fanlarga qiziqiʙ ʙu sahada katta maharat korsatar va zamandaşlarini hajran qaldirar edi. Şu ʙlan ʙirga u araʙ va fars tillarini, tarix va adaʙijatnj mukammal egallagan edi.

1495 jilda Umar Şajx olganida Baʙir Mirza endi 12 jaşga tolgan edi. Rvajatlarga kora atasiniꞑ olum xaʙarinj Baʙir Mirza dalada oz teꞑqurlari ʙlan ojnajatgan vaqtda eşitadi. Atasiniꞑ vazirlari uniꞑ aldiga ʙariʙ ta'zim qiliʙ endi uniꞑ hukmdar ʙolganini ʙildiradilar. Aqlli ʙala ʙirdan çiddijlaşiʙ atga hatlajdi va vazijatniꞑ masulijatini seziʙ şaharga qaraʙ capadi. Şu kundan i'tiʙaran Baʙir Mirza davlat tepasida turiʙ, katta kşilarni hajran qaldiradigan daraçada tadʙir ʙlan iş qiladi.

Şajʙanixan ʙaşliq kocmancj ozʙek qaʙilalariniꞑ Mavaraunnahrga huçumi Baʙirni qural kotarişga maçʙur etdi. 8 jil davam etgan qattiq kuraşlardan soꞑ Baʙir Farƣana va Samarqandni taşlaʙ Afƣanistanga cekinişga maçʙur ʙoldi. Bu kuraşda Baʙir oziniꞑ hamma sjasij va harʙij maharatiga qaramasdan jeꞑilgan edi. Bunga saʙaʙ ʙirincidan — Baʙirga qarşi ciqqan Şajʙanixanniꞑ ham mahir va çasur sarkarda ʙolişligi; ikkincidan — Şajʙanixan qoşuniga nisʙatan Baʙir askarlariniꞑ kamligi; ucincidan — Temurij hukumdarlarj ortasida jakdillik orniga nfaq va niza'niꞑ hukm surganligi va tortincidan — Baʙirga qaraşli ʙeklardan ʙir qisminiꞑ satqinligi ʙoldi. Şajʙanixan ʙlan Baʙir va umuman Temurilar ortasidagi kuraş ikki turli xalq ortasidagi kuraş emas, ʙalki sjasij hakimijat ucun kuraşuvci ikki sulala, ikkj sjasij guruh ortasidagi çançal edi. Bu guruhlardan har ʙiri ozʙek xalqiniꞑ turli iqtisadij va madanij daraçalarda turgan unsurlariga tajanar edilar.

Baʙir Afƣanistanda 20 jildan aşiq hukumdarlik qiladi. Bu davrda ham u Mavaraunnahrga qajtiş harakatidan toxtamajdi. 1511 jilda Şajʙanixanniꞑ vafatidan kejin u Mavaraunnahrga kiriʙ Samarqandni aladi. Lekin ozi va askarlari şu ƣalaʙadan esankraʙ ajş-işratlarga ʙeriladilar. Aʙdullah Nasirij korsatadiki, Baʙir «mamalik maftuh qildim deʙ xəmr icmakka iştiƣal qiliʙ ʙeklari ʙlan xavaslari, ʙalkj tamam navkarlari ajşga va tamaşaga konil qojiʙ, qavmi-Lutşi'arini peşa qildilar va andin ƣafil qaldikim, mulk egalari qulaq janida salim turiʙdilar». Şu fursatdan fajdalangan Şajʙanixan guruhi jaꞑidan Samarqandni ʙasiʙ aladi va ʙu gal Baʙir-Mirza Mavaraunnahrdan tamaman keçişga maçʙur ʙoladi. Garci tarixci: «Baʙir, şu ʙlan Mavaraunnahrni uc talaq qildi» desa ham u umriniꞑ axirgi vaqtigaca vatanini arzu qiladi va oƣli Humajunga qacaꞑ ʙolmasin Samarqandda taxtga oltirişni vasijat qiladi.

Afƣanistanga qajtiʙ ketgandan kejin Baʙir-Mirza ʙlan Hindistan imperatori Iʙrahim Ludij ortasida niza' ciqiʙ uruşga ajlanadi. 1525 jilda Baʙir-Mirza Iʙrahimni qat'ij jeꞑiʙ, Hindistan pajtaxti Dehlj şahrini aladi va ozini Hind va Afƣanistanniꞑ imperatori i'lan qiladi.

Baʙir Afƣanistan va Hindistanda kop maktaʙlar, madrasalar, kopruklar, ʙaƣlar, ʙaqcalar, jollar, karvan sarajlar, ariqlar, imaratlar saldirdi. Uniꞑ Hindistan va Afƣanistandagi faalijati ozidan ilgarigi padşahlarga nisʙatan mamlakatniꞑ aʙadanligi ucun anca xizmat qildi. Baʙir 1530 jilda Hindistanda olgandir. Kejinca uniꞑ naʙirasi Şahçahan uniꞑ sujaklarini Kaʙilga kociriʙ crajli ʙir qaʙrga komdirgandir. Baʙir ozi Kaʙilniꞑ ʙaƣlarini kop sevar va kop jaz fasllarini ʙu jerda otkazar ekan.

Baʙir har tamanlama osgan va hajatniꞑ turli sahalariga qiziqqan ʙir kşi edi. Baʙirniꞑ turmuşi toƣrisida «Baʙirxan» romanini jazgan fransuz jazucisi Flora Ana Stil dejdiki: «...Biz xata ʙlan ʙujuk moƣollar deʙ ajtiʙ kelganimiz sulalaniꞑ ʙirincisi, umuman Baʙir nami ʙlan maşhur ʙolgan Zəhiriddin Muhammad, Hindistan imperatori, şu ʙlan ʙirga şair, rassam, askar, pahlavan, zjali, muzikaci, gadaj va padşah edi».

Baʙir şaxsijatiniꞑ eꞑ xarakterlik xususijatini korsatmakcj ʙolsak ajtiş



kerakdirki — ʙu kuraşcan ruh edi. Uniꞑ hajatidagi maƣluʙijatlar kuraş pafosini sondiralmas edi. Cunki u oz nijjatlarini juksak ƣajalar ʙlan suƣarar edi. U ozi toƣrisida Luiz Morisniꞑ şu sozlarini ajtişi mumkin edi: «Men juksak muvaffaqijatsizliklarniꞑ məjda muvaffaqijatlardan kora nə qadar alij ekanini ʙilaman».

Eꞑ maşaqqatli pajtlarda ham u kuraş iradasidan qajtmajdi. Tavakkal emas, kşi iradasi uniꞑ hajat usluʙini tavsiflajdi. Bnaʙarin uniꞑ dinga munasaʙatida ham kop dəhrijlik unsurlari koriladi. U ruhanijlarni kop maratiʙa faş qilar va ularniꞑ aldaqcilik ham nəjraꞑlariga jol qojmas edi.

Baʙir toƣrisida jazgan tarixcilar: «ʙaʙasi Temurniꞑ dəhasi juz jildan kejin ʙu kşida jaꞑidan pajda ʙoldi» dejdilar...

Baʙirniꞑ Hindistanda qurgan imperijasini javrupalilar xata olaraq ʙujuk moƣollar imperjasi deganlar. Cunki ular Temurijlarni ham Cingizzada deʙ ojlar edilar. Buni turkij-temurilar sulalasi desa toƣriraq ʙolar edi. Bu imperija Hindistanda, 525-jildan 1857 jilgaca davam etgan. Bular ortasida Akʙar-şah (1556 — 1605) kaʙi maşhur sijmalar jetişkan. Şaira Zeʙ-Nisa Baʙirniꞑ cevarasi Avrənzeʙniꞑ qizi edi (ʙu şairaniꞑ farsca şi'irlari ʙar). Baʙir qurgan davlat XVII asrda çahanniꞑ eꞑ parlaq davlatlaridan hsaʙlanar edi. Bu

haqqanijat ʙlan ʙerişga qaratilgandir. Cunki Baʙir poezijasi hamma narsadan avval zor samimijat ʙlan işlangan poezijadir. U turmuşdagi jutiqlarini katta seviniş ʙlan kojlagani halda maƣluʙijat va xatalarni ham ujalmasdan iqrar qiladi va ʙularni jumşaq ələmlar ʙlan muꞑlajdi. Unda pessimizm ʙlan optimizm kop vaqt janma-janga keladi, ʙu qanunijat Baʙir hajatida ƣalaʙa va maƣluʙijatniꞑ şadlik va ƣamginlikniꞑ janmajan kelişidan tuƣilar edi. Qujidaƣi ruʙai Baʙir hajatida va ʙnaʙarin uniꞑ qalʙida ʙir-ʙiriga qarama-qarşi vaqialar va ruhij kecirmalarniꞑ juz ʙerganini korsatadi.

**Hiçran ƣamidin zəif çanim soldi,**
**Ƣurʙat ələmi ʙirla icim qan toldi,**
**Juz şukurki munca jilgi ƣəm ʙirla ələm —**
**Rahət ʙila işratga muʙaddal ʙoldi.**

Ruʙainiꞑ ʙujuk ustazi ʙolgan Baʙir asariniꞑ kompozitsijasini ham şu idejaga muvafiq rvaçlantiradi. Ruʙainiꞑ ʙirinci qismi hiçran-ƣəmƣurʙatdan şkajatni, ikkinci qismi esa əxirda jənə rahət-işratdan taşakkurni ifadalajdi.

Baʙir-Mirzaniꞑ lirikasida vatan oʙrazi markazi orinlardan ʙittasini işƣal qiladi. Turkstan va Afƣanstanda jazgan şi'rlarida ʙolsin, kejinca Hindistanda jazgan şi'rlarida ʙolsin şair oz vataniga ʙolgan qizƣin muhaʙʙatni kojlajdi. Ƣurʙatniꞑ eꞑ daʙdaʙali ni'matlari ham undagi vatan oʙrazini unitdiralmajdi:

**Koꞑlim ʙu ƣariʙlikda şad olmadi, ah!**
**Ƣurʙətda sevinmas emiş alʙatta kşi.**

Şuniꞑ ucun taaççuʙ emaski şair kop vaqt vatanni sevgili jar oʙrazi arqali tasavvur qiladi va aksinca sevgan jarini vatan va jurt qojnida xajal qiladi:

**Ƣurʙat icra ej koꞑul eldin vafa istarni qoj—**
**Cun vafasin kormadik hərgiz dijaru-jarniꞑ.**

Şu ʙlan Baʙir traditsion jar oʙrazini jaꞑi mafhum ʙlan ʙajitadi, jar oʙraziniꞑ assotsijatsion (ʙaşqa tuşinca va tasavvurlarni tuƣduruci) funksijasini jaratadi:

**Kopdin ʙerikim jaru-djarim joqdir,**
**Bir lahzaju ʙir nəfəs qararim joqdir.**

Jar ʙlan djar ortasida zor mə'nəvij ham muzikali ahaꞑ jaratişda Baʙir juksak sən'ət va ƣajavilik korsata algandir.

Hajat va ʙaxtniꞑ nazu-kərəşmələriga qaramasdan Baʙir dunja saadatini sevadi u Junanli Epikurga oxşaʙ fajdali muhakamalar va şirin suhʙatlar ʙlan taʙiat qojnida səfali kunlar otkazişni, dostlik prinsiplarini kojlaşni, xurafij i'tiqadlardan qutiliʙ dunjaga toƣri qaraşni, məj, muzika va muhaʙʙatni kotarişni jaxşi koradi. Lekin uniꞑ lirikasidagi ʙu məjllar içtimaij kuraş pafosini sondirmajdi:

**Tunu-kun ʙizla ʙu tun-maçlisi asru xuş edi,**
**Maçlis ahli ʙari dilxahu, ʙari dilkaş edi,**
. . . . . . . . . . . . . . . .
**Jaxşi məj joq edija nəşə'ij-məj jaxşi edi,**
**Naxuş el joq edi ju əsru havaij-xuş edi.**
**Bari ahʙaʙ edi hazir, ʙari asʙaʙ edi çəm' —**
**Sazu-xanənda ʙila nuqlu məji-ʙeƣəş edi.**

Hajatniꞑ real zavqu-safalarini aꞑlagan şair dinij qanun va marasimlarga ʙeqajd qarajdi va dahrijlik idejalariga jaqinlaşadi. U dinij tosuqlarga namajişkarana narazilik tariqasida məjni muʙaliƣalar ʙlan maxtajdi:

**Məj tərkini qilƣali parişandurman.**
**Bilmən qilur işimniju hajrandurman.**

Baʙir, içadi çuda keꞑ masalalar va qziq materiallarni oz iciga aladi. Baʙirniꞑ mirasi mufassal va mukammal tekşirilişga lajiqdir. Lekin şu maqalada qisqa ravişda ajtilgan fikrlardan ham aꞑlaşilsa kerakki, ʙujuk adiʙniꞑ asarlarini keꞑ ravişda egallaşimiz ozʙek xalqiniꞑ va ʙutun sovet xalqlariniꞑ sotsialistik madanijatini ʙajitişga xizmat qilaçaq. Zamanamizniꞑ ʙaxtijar nasllari Baʙir asarlarini oqujjatkanda şairniꞑ qujidagi misra'laridagi arzusini alʙatta ʙaçarar va uni minnatdarlik ʙlan jad etarlar:

**Hiçran əra jad etiʙ meni şad ajla,**
**Məhçur koꞑulni ƣamdin azad ajla,**
**Bu xətni aniꞑ ucun ʙitdim munda —**
**Korgan saji xətimni meni jad ajla!**

**ŞAJXZADA.**



Ƣarʙij Ukrainaniꞑ Borislov şahridagi nəft kani

Foto-klişe Tass

# *Baʙirdan namunalar*

## I

## *„Baʙirnamə“ dan*

(Bunda Baʙir Afƣanistanda Qandahar jolidagi maşaqqatlarni tasvirlajdi).

«... Neca kun ʙusjar taşvişlar va maşaqqatlar tartildi, andaqkim mudati-umr munca maşaqqat kamraq tartiʙ edi. Bu matla [1]) oşal fursatda ajtildi:

**Cərxnin men kormagan çəvruçafasi qaldimu?**
**Xəstə konlum cekmagan dardu-ʙəlasi qaldimu?**

Bir haftaga javuq qar tepiʙ kunda ʙir şər'i [2]) ʙir jarim şər'idin artuq koc ʙolmas edi. Qar tepar kşi men edim. On-onʙeş icki[3]) ʙlan va Qasimʙek edi. Ikki oƣli Tanriʙerdi va Qanʙarali ʙlan jana ikki-uc navkari ʙar edi. Uşʙu mazkur ʙolganlar jajaq juriʙ qar tepar eduk. Har kşi jetti-sakkiz-on qari [4]) ilgari juriʙ qar tepar edi. Har qadam qojganida ʙeligaca, koksigaca ʙata-ʙata qar tepar edi. Bir neca qadam ʙargandan son ilgari kşinin həmli [5]) kujiʙ turar edi. Jana ʙir kşi ilgar otar edi. Bu on-onʙeş jgirma kşi jajaq qarnikim tepar edi, anca ʙolur edikim ʙoş atni tartilur edi. Uzangusigaca, qaʙtaliƣaca koʙ-koʙ ʙata-ʙata ʙu ʙoş at ham on-onʙeş qadamca jol juriʙ taliqur edi. Bu atni jaqaga tartiʙ jana ʙir ʙoş atni tartilur edi. Uşʙu dastur ʙila ʙiz on-onʙeş jgirma kşi-oq qar teptik. Uşʙu on-onʙeş kşinin atlari-oq ilgari tartildi. Ozga tamam aʙdan-aʙdan jgitlar va ʙeklari atlaridin ham tuşmaj tajjar tepilgan va ʙasilgan jolga kiriʙ ʙaşlarin quji saliʙ kelurlar edi. Məhəl ul emas edikim, kşiga taklif va zuri qililgaj. Həm kim himmat va çur'ati ʙolsa ʙundaq işlarni ozi tilaʙ qilur. Uşʙu tariq ʙila qar tepiʙ jolqiliʙ Ançugan jerdan uc-tort kunda Kutil-zərinnin tuʙiga Xaval-quti degan xavalga kelduk. Uşʙu kun ƣəriʙ [6]) capqun [7]) ʙlan qar jaƣar edi. Andaqki ʙarcaga olum vəhmi ʙoldi. Ul el, taƣdagi ƣar va kavakilarni xaval derlar. Bu xavalga jetkanda capqun ʙehəd tez ʙoldi. Uşʙu xaval qaşida-oq tuşuldi. Qar uluƣ, jol jakrahə tepilgan, ʙasilgan jol ʙla ham at ʙəhila ʙaradir. Kunlar ƣajat qisqa, ilgarigi kşi jaruq caqda xaval aldiga keldilar. Namazşam, namaz xuftangaca el kela qaldi, andin sonra turgan jerga-oq tuşdi. Kop el at ustida-oq tan enurdi. Xaval tarraq korundi. Men xavalnin aƣzida kurak aliʙ qar kuraʙ ozimga ʙir təkja [8]) miqdari jer jasadim. Qarni kokusgaca qazdim. Hənuz jerga jetmajdur edi. Bir nma ʙelga panah ʙoldi, oşanda-oq olturdim. Bir neca dedilarkim xavalga ʙarin, ʙarmadim. Konulga kectikim ʙarca el qarda va capqunda, men issiq ujda va istirahat ʙila munda, ʙarca ulus taşviş ʙila maşaqqatda, men munda ujqu ʙlan faraƣatda — muruvvatdin jiraq va həm çhatliqdin qiraq iştur. Men həm har taşviş va maşaqqat ʙolsa korajin, har necuk el taqat qiliʙ tursa turajin: ʙir farsij məsəl ʙar: «mərg ʙajran sur əst» [9]) Oşandaq capqunda qazgan, jasagan cuqurda olturdim. Namaz xuftangaca qar anca capqudaʙ jaƣdikim men engaşiʙ olturiʙ edim. Arqamga va ʙaşim va qulaqlarimnin ustiga tort elik[10]) qar ʙar edi. Oşu keca qulaƣimga savuq tə'sir qildi. Namaz xuftanda ƣarni jaxşi mulahaza qilganlar, qicqiriştilarkim, xaval asru ken, xavaldur. Bu elga tamam jer ʙar. Muni eşittim, ustimdagi qar ʙarni silikiʙ xavalga keldim, xaval navahisidagi [11]) jgitlarni həm tiladim, qirq-ellik kşiga faraƣat ʙla jer pajda ʙoldi. Azuq va jaxşi qavurdaq va har nemakim hazir edi, kimninkim ʙar edi, keltirdilar. Mundaq savuq va qar va capqunda açaʙ issiq va əmin va faraƣatlik jerga keldik, tanlasiga qar va capqun turdi; erta kociʙ oşul dastur ʙila qar tepiʙ jol jasaʙ davan ustiga ciqtuk...»

---

Ajrim sozlarnin ma'nasi: 1) matla'—Ƣazal va qasidanin ʙirinci ʙajiti, 2) Şər'i —ʙir caqrim camasida jol, 3) Icki — xizmatkar, 4) Qari—ʙir qulacga ʙaraʙar keladigan olcav, 5) Həml—cdam, 6) Ƣəriʙ—ʙu jerda açajiʙ ma'nasida, 7) Capqun—izƣirin şamal aralaş qar, 8) Təkja—sujaniʙ oltiradigan çaj, 9) Dostlar ʙlan olmak toj-tamaşadir, 10) Elik—qol, 11) Navahi—atraf.

## II

### BABIR DEVANLARIDAN ƢƏZƏLLƏR

**1.**

**Ƣurʙat-hiçranga qaldim ah ul çan ilkidin,**
**Çanga jettim emdi ƣurʙat ʙirla hiçran ilkidin.**
**Korsatur gəh tiƣu, gəh oƣ halatimni ʙilmajin,**
**Nə ʙəlalar koradurman jari-nadan ilkidin.**
**Ej fiƣanimdin ʙəçanu men ʙu çandin ej əçəl,**
**Qil xilas elniju meni çanu-afƣan ilkidin.**
**Baʙir ul aj həçrida işin ʙəsi duşvar [1]) edi.**
**Şukrkim qutqardi olim seni asan ilkidin.**

**2.**

**Aciʙ ikki saci juziga jajilmişlar,**
**Jaruƣ çahanni kozimga qaranƣu qilmişlar.**
**Caƣir [2]) ʙaƣir qanidur ʙarca işq ahliga —**
**Zəhi [3]) alarki ʙu majdin dəmi ajilmişlar[4]).**
**Ne qilsam ajlama ej jar ajʙkim menda**
**Çnunu [5])-işqu-jgitlik ʙari qatilmişlar**
**Səlahƣa xirad ahli meni javuq derlar**
**Korinki uşʙu.....x) jiraq janilmişlar.**
**Ne sud[6]) işqni eldin jaşurmaq ej Baʙir**
**Cu halatinni ʙari alam ahli ʙilmişlar.**

**3.**

**Ƣurʙatga saldi cərx meni juz çafa ʙila,**
**Jad ajla men ƣəriʙni gahi dua ʙila.**
**Behad vafaju mehr sena korsatiʙ edim,**
**Sen ham saƣinƣasin meni mehru-vafa ʙila.**
**Cun qildi meni ul ʙuti-cin [7]) zaru-muʙtala**
**Işim menin qaliʙturur emdi xuda ʙila.**
**Korman farahni ʙir dəm agar andin ajruman,**
**Bilmən ələmni ʙarmen anin ʙirla ta, ʙila.**
**Ul sərvƣa, kərəm qiliʙan, jetkur əj saʙa,**
**Baʙir njazin jer opiʙan xuʙ ada ʙila.**

**4.**

**Kozimda muttasil ul egma qaş kerak ʙolsa,**
**Qaşimda koz jaruƣi ul ƣujaş kerak ʙolsa,**
**Sçud [8]) vaqtida mihraʙ ʙolmasun hərgiz [9])**

Ki ʙaş qojarda oşal egma qaş kerak ʙolsa.
Həʙiʙ [10]) işqida ʙaşdin kec ej konul joq esa —
Bu jolga qojma ajaq seꞑa ʙaş kerak ʙolsa.
Qojiʙ ajaƣiga ʙaş sursa lə'lidin hər kim —
Başiga tupraqu aƣziga taş kerak ʙolsa.
Seniꞑ ʙila ʙari el naxuş olsa ej Baʙir
Ne ʙolƣusi seꞑa ul jar xuş kerak ʙolsa.

5.

Kok osmada ul aj qaşi goja xajaldur,
Ja aj ʙaşida kokda korungan hilaldur [11])
Ne nəv oxşasun juziga aftaʙkim,
Aniꞑ zavali [12]) ʙarduru ʙu ʙezavaldur.
Aƣziju ikki zulfu qədi ʙolmasa meꞑa
Rajhanu sərvu ƣunca korardin malaldur.
Uşşaq [13]) ahi jelidin asiʙ [14]) tegmasun
Qaddiꞑki husn ʙaƣida nazik nhaldur. [15])
Koꞑlumga dard kelgali xəm [16]) ʙoldi qamatim
Qaddim magarki «dard» jaƣidagi «dal»dur. [17])
Garca vafaju mehrini ʙilmas meniꞑ ajim
Lekin çafaju-çavrda sahiʙ-kamaldur.
Har neca ʙeinajat esa jar Baʙira
Sen qojma xizmatiꞑniju aꞑi ujaldur.

6.

Qaşiju qadiju aƣzin ul mah
Korsatmasa meꞑa najlajin, ah!
Tutqum sacini juzin koraj deʙ
Tun uzunu men ƣariʙi-gumrah.
Qaddi ʙila ikki zulfu aƣzi
Çanimga ʙəla ʙoluʙtur, allah!
Xah ista koꞑulni xah, qavla
Cun sensen ʙu koꞑulga dilxah!
El ʙilmasa halətim ʙilur jar,
Halimdin erur xudaj agah.
Kaʙil sari gər azimat etsaꞑ
Qurʙan qilaj ozni seꞑa ej şah!
Baʙir, jana otluq ah cektiꞑ
Kujdurmasun elni ah, nagah!

7.

Ozni koꞑul ajş ila tutmaq kerak,
Bizni unutganni unutmaq kerak.
Ajşu-tərəʙ [18]) gulʙəniga suv ʙeriʙ
Ƣussa nihalini qurutmaq kerak.
Har nmaga ƣəm jema, ƣam koptur,
Ajş ʙila ozni avutmaq kerak.
Tiradurur [19]) zuhd [20]) damidin koꞑul
Işq oti ʙirla jarutmaq kerak.
Qojma maşaqqatara Baʙir koꞑul —
Ozni faraƣat ʙla tutmaq kerak.

8.

Ul pəriniꞑ tiƣidin qorqutma meni el raqiʙ,
Işqida ʙaşimga meniꞑ har ne kelsa ja nəsiʙ!
Evriluʙ ʙaşiꞑga ej aj qilmişam tərki-vatan,
Rahm qilƣil meꞑakim sərgəştədurmən həm qariʙ.

Telʙa ʙolmaqliqdin ozga caraj joqtur meꞑa,
Ul pəriru [21]) nagihan ər [22]) ciqsa ujdin jasaniʙ.
Çanda ʙerkitkan oqin cekmak meꞑa rançdurur,
Qojƣil ul oqni cekaj, deʙ ranç cekmaj ej ṭaʙiʙ!
Baʙira hargiz qulaq şi'riꞑga ul gul salmadi,
Gulga nə parvaki juz farjad qilsa andaliʙ. [23])

9.

Qara zulfiꞑ fraqida parişan ruzgarim ʙar.
Juziꞑniꞑ iştijaqida ne saʙru ne qararim ʙar.
Laʙiꞑ ʙaƣrimni qan qildi, kozimdin qan ravan qildi,
Nega halim jaman qildi, men andin ʙir sororim ʙar.
Çahandin meꞑa ƣəm ʙolsa, ulusdin gər ələm ʙolsa,
Ne ƣəm juz munca həm ʙolsa, seniꞑdek ƣəmkusarim [24]) ʙar.
Agar muslihmən, ər mufsid [25]) va gər aşiqmən, ər aʙid, [26])
Ne işiꞑ ʙar seniꞑ zahid, [27]) meniꞑki ixtijarim ʙar.
Fƣanim aşti ʙulʙuldin, ƣəmi joq zerrə ʙu quldin,
Bəsi Baʙir, oşal guldin koꞑulda xarxarim ʙar, [28])

RUBAIJLAR

1.

Həçriꞑ ƣəmidin aqiʙat olgum qarakoz!
Juz ƣussaju-anduh [29]) ila ʙargum qarakoz!
Vasliꞑ ʙila qilmadiꞑ ilaçin, Baʙir,
Muşkilki fraqiꞑda tirilgum qarakoz!

2.

Jad etmas emiş kşini ƣurʙatda kşi,
Şad etmas emiş koꞑulni mehnatda [30]) kşi,
Koꞑlum ʙu ƣariʙliqda şad olmadi, ah
Ƣurʙatda sevinmas emiş alʙatta kşi.

3.

Keldi ramazanu men taqi ʙadapərəst,
Id oldiju zikri-məj qilurman pəjvəst,
Ne rozaju, ne namaz, jillar, ajlar
Tun-kun məju-ma'çun ʙla devanaju-məst.

4.

Məj tərkini qilƣali pərişandurmən,
Bilmən qilur işimniju hajrandurmən,
El ʙarca puşajman ʙoluru tavʙa qilur
Men tavʙa qiliʙmanu puşajmandurmən.

5.

Çanimda meniꞑ hajat çanim sensen,
Çismimda meniꞑ ruhi-ravanim sensen.
Baʙirni seniꞑdek ozga joq jari-aziz
Əlqissaki umri-çavdanim [31]) sensen.

6.

Qajƣuꞑ ceka-ceka qariʙdur Baʙir,
Rahm ajlaki ozidin ʙariʙdur Baʙir,
Naranç [32]) juʙardi seꞑakim ʙilgajsan
Ja'niki ʙu nav' sarƣariʙdur Baʙir.

7.

Kopdin ʙerikim jaru-djarim joqtur,
Bir lahzaju ʙir nəfəs qararim joqtur,
Keldim ʙu sari oz ixtijarim ʙirla —
Lekin ʙarurimda ixtijarim joqtur.

8.

Hiçran qafasida çan quşi dəm qiladur,
Ƣurʙat ʙu aziz umurni kəm qiladur,
Ne nav' ʙitaj fraqu ƣurʙat şarhin —
Kim kozjaşi namaniꞑ juzin nəm qiladur.

MƏSNƏVIJLAR:

1.

Xuş qiliʙ ozni ʙu kecmaklikdin,
Təvʙə qildim caƣir icmaklikdin,
Altunu-nuqra surahiju-ajaƣ [33])
Hazir ajlaʙ ʙarini sindirdum,
Tark etiʙ məjni koꞑul tindirdim.

2.

Seni sevmasliklkiꞑni çazm etarman,
Baş aliʙ ozga jer sari ketarman,
Gər ʙatraq juʙarmassan çavaʙim
Bu xatdan artuq olur picu-taʙim. [34])

3.

Gəh elkima ƣəʙƣəʙiꞑni alsam,
Gəh aƣzima ul ləʙiꞑni alsam,
Kozimni kotarmasam koziꞑdin,
Juzimni kotarmasam juziꞑdin.
Gah aƣzimga tiliꞑni salsam,
Gah aƣziꞑga tilimni salsam,
Hasilki, agar qaşiꞑga jetsam,
Xatir tilagunca işrat etsam.

FƏRDLAR

1.

Ul pəriruxsara hargiz natavanliq kormasun.
Jaxşidur jaxşi kşi, hargiz jamanliq kormasun.

2.

Bar arci [35]) ʙais juz şuru juz gunah caƣir,
Caƣir fraqi halak etti meni, ah, caƣir!

3.

Qavun ʙirla uzumniꞑ haçrida koꞑlimda ƣəm hasru, [36])
Aqar suvniꞑ fraqidin kozimdin hardam aqar suv.

---

Ajrim sozlarniꞑ ma'nasi 1) Duşvar-qijin, 2) caƣir-məj, 3) Zəhi-ne xuşi, 4) ajilmişlər-ujƣanganlar, 5) çnun-çinnilik, 6) sud-fajda, 7) ʙuti-çin-xtaj ʙuti, ʙu jerda insafsiz ma'nasida, 8) Sçud-səçda qiliş, 9) hargiz-asla, 10) həʙiʙ-dost, 11) hilal-jarim aj, 12) Zaval-qujaşniꞑ ʙatişi, 13) Uşşaq-aşiqlar; 14 asiʙ-zərər va falakat; 15 nhal-navda; 16) xəm-egri; 17) misra'niꞑ ma'nasi «meniꞑ qaddim «dard» sozidagi «d» harfidaj egildi»— cunki araʙ alifʙesida «d» harfi egri zavija şaklidadir. 18) ajşu-tərəʙ-ojun-tamaşa; 19) tira-qara; 20) zuhd-tərk dunijalik, 21) pəriru-pəri juzlik, 22) ər-agar, 23) andaliʙ-ʙulʙul, 24) ƣəmkusar-ƣəmni jupantiruci, 25) Mufsid-sulh salamat egasi, mufsid-fisqufasad egasi; 26) aʙid-iʙadatci; 27) zahid-tərk-dunja qilgan kşi; 28) xarxar-ʙehzurlik; 29) ƣussuju-anduh-ƣam, ələm; 30) mehnat-asl araʙcada ʙolganidaj Baʙir zamanida ham maşaqqat va zahmat ma'nasiga; 31) umri-çavdanij-adaʙij hajat; 32) naranç-portaqalga oxşagan sariq xuşʙoj meva (mandarin); 33) surahiju-ajaƣ-məj idişlari; 34) picu-taʙ—qarişiq ahval; 35) arci-garci: 36) həşru-hartaman.

Tunu-kun ʙirlə ʙutun maçlisi esru xuş edi
Maçlis əhli ʙari dil xahu ʙari dilkaş edi.
Bariniꞑ sozi edi xoʙu latif va rangin
Ne parişanu, ne ʙema'ni va ne cirmaş edi.
Jaxşi məj joq ediju, naş'ə maji jaxşi edi
Naxuş el ediju, esru-havaji xuş edi.
Bari əhʙaʙ edi, hazir ʙari asʙaʙ edi çam'
Sazu xananda ʙila naqlu maji ʙeƣaş edi.
Gah furxenda edi el leʙi sarxuşliqdin
Mastliqdin jana gah el kozi tola jaş edi.
Barca ta'zim qiliʙ ʙir-ʙirini mastana
Gah ʙaşda ajaq erdi, gah ajaqda ʙaş edi.
Tunni jarmigaca ʙul nav' edi, andin soꞑ
Maçlis əhliniꞑ işi har sariƣa tarqaş edi.
Men eliꞑdan ʙariʙ erdim tutiʙ ilgimni ʙrav
Meni ujƣatdi koz acdim esa, ul mahvaş edi.
Tartiʙ ilgini, quciʙ ʙojnini, aƣzini opiʙ
Taꞑgaca ojnamaq iş erdi — ne huş ojnaş edi.
Baʙira harza dedi — maçlis eli əjʙ etmaꞑ
Kərəm ejlaꞑ ani ma'zur tutiꞑ — sarxuş edi.

——0——

Qəddu xətiꞑ ʙila juzu koziꞑ ej sarvi semintən
Biri sərvu, ʙiri rajxan, ʙiri nargiz, ʙiri gulşan.
Hadliju la'li raftar va çamaliꞑdin erur hardam
Tilim goja sozim rangin koꞑul xurram, ozim ravşan
Meni əsru, ʙedilu, ʙexor ul əsru puru dilu purfan
Falak çaʙru-cafasidin. ul ai dardu ʙəlasidin.

——0——

Cekarman nalaju-afƣan, qilurman girjaju şevan.
Bəlaji işqu jalƣizliq daƣi hiçran va ƣurʙatdə
Adim maçnun, kşim mihnat, işim zari, jerim gu'xan
Oƣiꞑ ʙirla xəjaliꞑ, dardiꞑu mihriꞑga Baʙirdek
Tonim manzil, kozim maskan, kokus ma'va, koꞑul maxzan.

——0——

Neca rasva ʙolƣanmen işq icra şajdaliq ʙila
Hec kşi kormajdirur aşiq ʙu rasvaliq ʙila.
Har neca kim tutdim ozni parisaliƣ tavrida
Boldim axir şuhraij afaq şajdaliq ʙila
Menki hiçraniꞑda qan jutmaq ʙila mu'tadimen
Menga joqdir hec nisʙat ajşu sahʙaliq ʙila.
Şajx şirim man' etar jetmaj ʙəlaƣat lutfiga
Najlagaj jaraʙ kşi ʙu firi naʙaliq ʙila
Baʙiri ʙedilni işqi telʙa etsa ne açaʙ
Cunki hargiz rast kelmas işqi danaliq ʙila.

——0——

Xətiꞑ ʙila juziꞑu, kakiliꞑ seniꞑ ej can
Biri ʙinafşa, ʙiri jasuman, ʙiri rajhan
Təkəllum əjlərida tilu teşiv laʙi
Biri əqiq va ʙiri inçu, ʙiri marçan.
Koꞑilni zaru, meni xaru, tanni tar etgan
Biri çafaju, ʙiri ƣurʙatu, ʙiri hiçran
Tənu koꞑul ʙila koz vaslij nazi husni ucun
Biri xaraʙu, ʙiri valahu, ʙiri xajran
Tamam umrida Baʙirƣa uc soz ajtiʙdir
Biri sokincu, ʙiri qattiƣu, ʙiri jalƣan.



Gullajatgan respuʙlikamizniꞑ manzaralaridan. Suratda (solda): Lenin rajonidagi Şahrixanş ajiniꞑ irrigatsija qurulişi. Onda—Asakaga suv ciqariş. Foto: Penson

# Arqandagi altmiş jil

Sovet sirkiniꞑ XX jilligi munasaʙati ʙlan, SSSR Alij Soveti tamanidan davlat sirk artistlariniꞑ mukafatlaş toqrisida ciqarjlgan farmanda, Leniꞑ ordeni ʙlan mukafatlanganlar srasida Egamʙerdi Taşkentʙajev degan namni oqudim. Meniꞑ koꞑlimda, şu kşi ʙlan tanişiş arzusi tuqquldi va tez arada tanişişga muvaffaq ʙoldim. Men Taşkent sirkiga Egamʙerdi akani korgani kelajatiʙ ozimca u kşini xajalimda tasvir qildim: 26-27 jaşlar camasidagi navca, ʙaquvat, ikki juzi qip-qzil, hama vaqt kuliʙ turadigan, jerda ham xuddi darga ciqiʙ ketajatgandaj salmaq ʙlan qadam taşlaʙ juradigan ʙir kşini koz aldimda keltirdim. Men sirk jataqxanasiga kelganimda, aftaʙşuvaqda uc-tort kşi suhʙat qiliʙ oltirgan ekan. Men ulardan Egamʙerdi akani koriʙ ʙoladimi? — deʙ soradim. Xuddi men xajalimda tasavvur qilgan ʙir jgit skamejkada otirgan jeridan menga taman qozqaldi, men Egamʙerdi aka şu ʙolsa kerak deʙ ojladim. Jgit menga jaqin kelgac «kim» deʙ soradi — «hə, atami, şu jerda...», «Ata?» demak men Egamʙerdi akaniꞑ ataligini endigina pajqadim.

Men crajlik qiliʙ ʙezatilgan, kiraʙerişda roparaga insanijat alaminiꞑ dahisi Stalinniꞑ portreti asilgan, şnamgina ʙir ujcaga kirdim. Stol janida «Pravda» gazetasiniꞑ ʙirinci ʙetidagi SSSR Alij Sovetiniꞑ farmaniꞑi oquʙ turgan, juzlaridan ʙujuk quvanc-şadligi aks etiʙ turgan orta jaşlardagi nuranij ʙir kşiga kozim tuşdi. Kejinraq ʙilsam, Egamʙerdi aka Taşkentʙaj şu kşi ekan.



Biz suhʙat ʙaşladik.

Çazirama, issiq kunlar... hava dim, kec, ʙatişga qajtmaqda ʙolgan oujaş harorati, şahar icidan ciqalmaj dimiqiʙ—ajlaniʙ jurgan iliq şamal ʙlan kşi ʙoqziga can saladi... Namazgah... adam quvimalik — ujasiga cop suqilgan əridek vazillajdi, şavqun-suran...

Ajranci oz ajranini, gulaʙcj-gulaʙini, samsapaz, kalla paz, naxad şorakllariniꞑ maxtavlari qulaq-mijani jijdi. Keꞑ majdanga tikilgan ʙizniꞑ dar, cuda ʙaland... ʙalalarniꞑ arqanni siltisi ʙlan larzaga kelgan dar uciga tikilgan ʙajraq hilpirajdi. Karnaj-surnaj, adamlar keꞑ daira aliʙ oltirişadilar. Men ʙolsam, alacə ʙarqutdan şim, katak citdan kojlak kijganman, daira ortasida maqrur, ozimda joq xuddi katta ksilardaj ujaqdan-ʙujaqqa juriʙ qojaman, gaha naqaracjlarga qoşiliʙ dol ham calaman.

Dar tagida ujaqdan-ʙujaqqa gizillaʙ atam va Oşlik darʙaz Xudajnazar juradi. U, joqqan ʙarvasta, qaraqaş, ʙaqiraq ʙir kşi edi. U kopdan ʙeri darga ciqmaj qojgan. Uniꞑ oqli, ukasi va ʙizga oxşagan şagird ʙalalar ciqadi, u ʙolsa dar tagida ʙəjt ajtiʙ xalqni aldaʙ pul jiqqadi. Aniq esimda joq; katta ʙajlardan ʙiri oqliga toj qilgani ucun uc kundan ʙeri ʙiz darga ciqamiz. Bugun meniꞑ ʙirinci marta darga ciqişim. Men oşa vaqtlarda 13 jaşlarda edim. Avvallari ʙizga oxşagan şagird ʙalalarni katta — ʙaquvat darʙazlardan ʙrantasi arqasiga apictiriʙ ciqardi. Şu xilda ikki-uc ciqqac, kejin ozi ciqa ʙerardi. Men ʙolsam, ʙirdaniga ozim ciqaʙerdim. Oşa kuni-men ʙirinci darga ciqqan kunim, altmiş jil ʙundan avval)— avvala Xudajnazarniꞑ oqli ciqdi. Soꞑ menga navʙat keldi. Qolimda langar, uzaq, incka va cinqiraq avaz ʙlan əliga naliş qilaman — kejin «kindikgaca» sekin juriʙ ciqaman... Maꞑa oqlim ʙundan altmiş jil ilgari maꞑa şundaj hajaçan va quvanc ʙlan, meniꞑ uluq mukafatga sazavar etgan kasʙimga ʙirinci qadam qojdim.

Egamʙerdi aka menga tikiliʙ uzaq çim qaldi. Men jana ʙir-ikki savaj ʙeriʙ edim, menga qaraʙ kuldi-da:

— Şaşmaj turiꞑ oqlim, men ʙunaqangi jaꞑi gaplarni çajiga qojiʙ gapiralmajman. Kejinim Marjamni caqirtiraj, u ʙlan gaplaşiꞑ dedi—, kim u Marjaminiz dedim men.

— Tilamac oqlim, u-siz, ajniqsa menga qjin ʙoladi. Bir-ikkida jaꞑi gapiriʙ organmagan... Hə anə ozi ham keliʙ qaldi.

Şu lahza 22 jaşlar camasida, quvnaq, kaptakdaj caqqan, jumalaq juz, ikki juzi anar danasidaj ʙir çuvan kiriʙ keldi. Egamʙerdi aka men ʙlan taniştirgac həzil qiliʙ: qajerda ediꞑ, ʙiz ʙir-ʙirimizniꞑ tilimizga tuşunalmaj qaldik, dedi.

Biz endi «tilmac» vasitasi ʙlan gaplaşa ʙaşladik.

— Necta ʙalaꞑiz ʙar?

— 18 ta... Ozim Asakalikman. Eꞑ kattam oşa jerda kolxozda işlajdi. Bu jil Kanalda darga ham ciqdi. Kencam esa, ozim ʙlan ʙirga...

— Davlat sirkiga qacan keldiꞑiz? — deʙ soradim.

— 29 jil. Şundan ʙeri işlaʙ kelaman. Burunlari xoçajinlar ʙrar toj, jaki səjil ʙolsa ozlari ʙilganica şartnama qiliʙ ʙizni işlatardi-ju, pulniꞑ nomajini oz kissasiga urardi. Biz keꞑ qulacini aciʙ turgan olumga, dadillik ʙlan ozimizni taşlasak ham sra kasamiz aqarmas edi. Bizniꞑ arqamizdan, dar tagida turiʙ ʙolar-ʙolmas narsalarni ʙaqiriʙ tamaq qirgan xoçajinlargina maza qilardi.

— Darga ciqadigan adamniꞑ tuşida ajan ʙoladi, kejin ozidan-ozi ciqiʙ ketaʙeradi dejişadi, rastmi?

— Bekar gap ʙalam... Buni ham organiş, malaka qiliş kerak. Agar malakasiz ʙolsa, qorqsa, ʙir qadam ham ʙasalmajdi. Biz dejarlik SSSR niꞑ ʙutun katta şaharlarida ʙoldik. Maꞑa har kuni sirkda darga ciqamiz, əli deʙ ʙaqirmajmiz. Bəri-ʙir hec narsa ʙolmajdi-ku, u ham ʙolsa eski vaqtda xalqni aldaş ucun işlatilgan hila edi-da, ʙalam.

— Biz—dedi sozga aralaşgan Marjamxan — 35 jilda Moskvaga ketgan

edik. Şundan ʙeri 11 respuʙlikaniꞑ hammasida ʙoldik. Muvaffaqijatimiz jaman emas, uzaq şarqda ʙolsa; Xaʙaravsk, Vlodivastok, Hasan Koli ʙojlaridagi cegara zastavalarida ham ʙoldik. Hasan koli çaꞑiniꞑ ʙir jilligi munasaʙati ʙlan ʙolgan tantanada iştirak qildik. Cegara çaꞑcilari ʙizni çuda jaxşi qarşi aldi... Jana kop kelişga va'da ʙeriʙ keldik.

Egamʙerdi aka menga «Pravda» gezetasini uzatiʙ, ozida joq quvaniʙ:

— Butun SSSR da men ʙilmajdigan şəhar ham qalmadi. Men şundaj xursandmanki, meni şundaj ʙaxt-saadatga eriştirgan, çanaçan ʙujuk Stalinga miꞑlarca rahmat. Meni çuda gapim kop ediku sevincimdan jiqlagim kelajapti—dedi.

Haqiqatan 73 jaşli — altmiş jil umrini ərqan ustida otkargan, həli jigitlardaj navqiran ʙu kşiniꞑ uzaqlarni korişga quvvati jetadigan kozləridan ikki tamci sevinc jaşlari aqiʙ tuşdi. Şu an uj iciga ʙir quram ʙeştaca jgit kirdi, ʙular Egamʙerdi akaniꞑ şagird ʙalalari ekan. Men xajirlaşajatiʙ Kalininniꞑ aldiga qacan ʙarasiz deʙ soradim.

— Ozʙekstanniꞑ tojini otkazajlik, kejin Moskvaga ʙariʙ ortaq Kalinjnni, dahi Stalinni korsam sra ham armanim qalmajdi,—dedi.

— Alʙatta korasiz — dedim.

— Şuʙhasiz oqlim, şuʙhasiz — dedi Egamʙerdi aka.

M. Həkim.



Egamʙerdi aka cevarasi ʙlan.

# KARIM AKA VA UNIꞐ AILASI



Muştak çanidan ʙelini ʙukiʙ, ʙaşini pastga, ajaqini juqariga qiliʙ qolini ustida tikka turiʙ va ʙaşqa hunarlarni korsatiʙ, qorcaqʙazlar ʙlan ʙirga qarnini tojqaziʙ jurgan Karimçan—ʙugun SSSR niꞑ hamma jeriga maşhur. U, 1902 jilda sirk xoçajinlaridan ʙiriga maqul tuşiʙ qaliʙ, unga turnikda, ciqriqda ojnaş, trampolin ʙlan irqiş va ʙaşqa hər xil akraʙat ojinlarini orgatadi.

Karim aka revolutsijani qulac jaziʙ qarşi aladi. U, qzil gvardija icida juriʙ ham qiziqcilik, qiladi ham ʙasmacilarga qarşi kuraşadi.

U 1937 jilgaca faqat Ozʙekstanda işlajdi. Ozʙek xalqiga, xususan, Taşkent ahalisiga şundaj taniladiki, Karim qiziq desa tanimajdigan adam kam ʙoladi. Oziniꞑ mahir va san'atkarana harakat va mimikalari, xalqniꞑ hazim qilişi ucun çuda jaqimli ʙolgan qiziq-qiziq sozlari ʙlan xalq diqqatini oziga çalʙ qiliʙ aladi.

Karim akaniꞑ ʙirgina ozi emas, uniꞑ ʙutun ailasi sirkda ojnajdilar. U, 1930 jildan ʙaşlaʙ qiziqcilik ʙlan ʙir qatarda at ustida ojnaşni ham maşqini aladi va xatini, 15 jaşdagi oqli, 12 jaşdagi qizi va ʙaşqa qarindaşlariga orgatadi. Butun aila uc at ʙlan sirk sahniga ciqiʙ, at ustida juriş va merganlikniꞑ eꞑ juqari san'atini korsatdilar.

Karim aka va ailasiniꞑ ʙu san'atlari çuda ham manzur ʙoladigan ucun, ʙutun SSSR sirklariniꞑ ʙaşqarmasi qaramaqiga caqiriʙ aladilar. Ularni SSSR niꞑ hamma jeriga gastrolga juʙaradilar. Ulariniꞑ at ustida aʙçir-jurişlari, capiʙ ketajatgan at ustidan turiʙ, molçalga kirgan narsani miltiq oqi ʙlan titiʙ juʙarişlari SSSR xalqlariniꞑ alqişlariga sazavar ʙoldi. Ularni «ozʙek at caparlari», «ozʙek merganlari» deʙ muhaʙʙat ʙlan tamaşa qiladigan ʙoldilar.

Karim aka Ozʙekstanda xizmat korsatgan artist unvaniga ega. SSSR hukumati uniꞑ xizmatlarini taqdir etiʙ, sovet serkiniꞑ 20 jilligi kuni «Mihnatda ornak korsatkani ucun» medali ʙlan mukafatladi.

A. A.

# Lutfixanim

Lutfixanim 1902 jilda xuddi Kujʙişev rajoninin Aqjer qişlaqida kamʙaqal ʙir ailada tuquldi. U 2 jaşga jetmasdanaq ata-anasini olum aradan juliʙ aldi. Jetim qizcani Bulaqʙaşi qişlaqidagi xalasinin qoliga ʙerdilar. Ikki jildan son xala ham oldi. Xala olgandan son akasinin qolida qaladi. Akasinin har kimlarnikida işlaʙ tapgan caj-caqasi ularga zorqa jetadi. Tapganlarida jer, icar, tapmaganlarida icmasdan qalaʙeradilar.

1919 jilda Qoqanga kelgan Lulfixanim Derazlik mahallasida har kimlarnikida juriʙ mihnat qiliʙ jaşaj ʙaşladi.

U, doppi tikiʙ, şu arqali kun korardi. U vaqtda qoni-qoşnisinin ʙir-ʙiriga alaqasi jenillaşsin ucun havlilar ortasida teşikca ʙolar edi. Kop vaqt xatinlar ʙir çajga jiqilişiʙ iş qilişar, işlaʙişlaʙ zerkkan vaqtlarida Lutfixanimnin dutar ʙlan aşula ajtiʙ ʙerişini iltimas qilar edilar.

Ajniqsa:

Ujaniga taşlaʙ ojnasin,
Bujaniga taşlaʙ ojnasin.
Arqa saci çamalak
Beliga taşlaʙ ojnasin.

Jana:

Qaşinni qaralataj
Tillani şaraqlataj,
Beş ʙel kamzul kijgiziʙ
Ajdinda jorqalataj.

Aşulalarini çuda ma'qul koriʙ, qajtaqajta ajtdirar edilar.

1922 jilda Qoqan zenotdeli, Lutfixanim parançida ʙolsa ham, uni Derazlik mahallasiga delegatka qiliʙ qojdi. Delegatka Lutfixanim ham ʙu vazifasini aktiv ʙaçara ʙaşladi. 1923 jilda mahalla komisijasi sostaviga otdi. Xatin-qizlar arasida işlaşda jana aktivraq qatnaşdi.

1924 jilda Qoqandagi xatin-qizlar qluʙiga oquşga kirdi. Oquş davrida san'atga ʙolgan muhaʙʙatini jana aşirdi. Qluʙda xatin-qizlar teatr togaraginin aktiv a'zasi ʙoliʙ aldi. Togarak «Erk ʙalalari» pjessasini sahnaga qojdi. Xatin-qizlar qluʙida erkaklardan artist ʙolmagani ucun Lutfixanim jgit rolini ʙaçarar va çuda jaxşi ciqarar edi.

Ozʙek xalqinin maşhur dramaturgi marhum Hamza Hakimzada Nijazij şu vaqtda Qoqanda edi. Lutfixanimnin həligi pjessadagi talantini koriʙ, Hamza teatr sahasida işlaşga taklif qildi.

Xatin-qizlar qluʙi qaşidagi togarak anca kucajdi. Konsertlar ʙera ʙaşladi. Lutfixanim konsertda ʙirici martaʙa «Qulin» aşulasini va xalq jallalarini ajtdi.

1926 jilgaca şu togarakda işlaʙ jurdi.

1927 jilda parançisini taşlaʙ Qoqandagi muzika teatriga işga kirdi. Bu vaqt teatrda Qari Jaquʙov, Mirşahid Miraqilov va Tamaraxanimlar ʙar edi.

Şu jilnin ozida «Lajli Maçnun»da Ləjlinin anasi va «Arşin malalan»da Askarnin anasi rollarini anca jaxşi aliʙ ciqdi. 1927 jil axirida ʙu teatr Farqana vadisiga gastrolga ciqdi. Marqilanda «Farhad va Şirin» qojiladigan kuni Şirin rolini ojnajdigan artistka kasal ʙoliʙ qalgani ucun, Şirin rolini tajjarliksiz ʙolsa ham ojnaʙ juʙardi va ʙu ojini muvaffaqijatli ciqdi.



Lutfixanim — Ajsara rolida («Gulsara» asari).

Namanganda gastrol vaqtida jana şundaj hadisa ʙoliʙ, Ləjli rolini ojnadi. Xullas şu gastrol Lutfixanimni Farqana vadisiga tanitdi.

1928 jilda hazirgi Hamza teatri Samarqandda edi. Lutfixanimnin davruqi tarqala ʙaşlagandan son şu teatrga caqirdilar. Braq Andiçan teatriga işga çajlaniʙ qalgani ucun, Akadim teatriga ʙarmadi.

1928 jilda Andiçanga ʙariʙ «Arşin malalan» asarida navʙatma-navʙat: Aşkar, Zeʙa, Askarnin xalasi, Gul Cehra rollarini ojnaʙ, Andiçanda ham tanildi.

1931 jilgaca ʙu teatrda işlaʙ Şahadatxanim, Liza Petrosjans, Mukarrama Azizova (namangan teatrinin rezissori) ortaqlarnin osişiga çuda katta jardam ʙerdi. 32 nci jil ʙaşida Marqilanda teatr taşkil qiliş ucun Andiçan teatridan rezissor Taçizada ikavlari safarʙar qilindi. Şu vaqtda Marqilanda «Qzil san'at» degan togarak ʙar edi. Bu togarakni kenajtiriʙ teatr haliga keltirdilar.

Bu jerda Taçizada va Lutfixanim «Malikaij Turandat», «Ortaqlar», «Ickarida» asarlarini sahnaga qojdilar. Oşa vaqtda ʙular taklifi ʙlan Kustar namli etikdozlar artelidan artistlikga otgan Matkarimov hazir Farqana oʙlast kolxoz-sovxoz teatrinin jaxşi aktjor va rezissori, Marqilan teatrida tarʙijalangan Fatima Xoçajeva hazır respuʙlikada xizmat korsatgan artisti unvaniga ega ʙoldi.

1934 jilda Lutfixanimni Sverdlov teatriga caqirdilar. Bu jerga keliʙ Şirin va Gulcehra rollarini ʙaçardi.

«Farhad va Şirin»da Jasuman oʙrazini asasan jaratgan Lutfixanimdir. Bu oʙrazni avtor ajtmaqci ʙolgan fikrda çuda real gavdalantira algan.

1935 jilda «Gulsara» muzikali dramasida Ajsara rolini açajiʙ ojnagani hammaga ma'lum.

Ozʙek film-işlaʙ ciqargan «Qasam» kinosida ʙatraknin anasi rolini ojnaʙ ʙerdi.

1937 jilda Moskvada ʙoliʙ otgan ozʙek san'ati on kunligida Lutfixanimnin xizmati çuda katta ʙoldi. SSSR hukumati unin ʙu xizmatlarini taqdirlaʙ koksiga Mihnat Qzil Bajraq ordeni taqdi.

San'at onkunligidan qajtgandan son teatrda qojilgan «Ertarqin» va «Nargiz» operalarida masulijatli rollarni ʙaçardi.

1939 jil aprel ajlarida Ozʙekstan hukumati va şaxsan ortaq Axunʙaʙajev ortaq Sarimsaqovaga ordenli filarmonija qaşida dutarci qiz-çuvanlar ansamʙili tuzuşni tapşirdi. Lutfixanim ʙu muhum vazifani şaraf ʙlan ʙaçardi, tez vaqt icida ansamʙilni tuziʙ işga saliʙ juʙardi. Qiz-çuvanlar ansamʙli ozinin ʙirinci iş pocinini asasan Katta Farqana kanali qurulişida otkazdi, qalaʙalar çuda katta ʙoldi.

Lutfixanim hazir şu dutarci qiz-çuvanlar ansamʙilinin ʙadiij rahʙari.

1939 jilnin oktaʙrida Moskvada ʙolgan Butun Ittifaq xalq instrumentlari konkursida ikkinci orinni aldi. Hazir «Asal» kino filmida Asalnin anasi rolini ojnajatir.

Xalq san'atinin açajiʙ namajandasi xalqqa ozinin katta xizmatlari ʙlan tanilgan xalq artistkasidan ilhamlanasan kşi. Lutfixanimnin jaşligida darʙadarlik ʙlan osiʙ, katta artistka ʙoliʙ vajaga jetişişi uluq sovet vatanida ʙoldi. Sovet Ozʙekstani mana şundaj ataqli kşilar ʙlan faxrlanadi.

**Jusufçan Hamdam.**

# „Baj ila xizmatci" M. Gorkij namidagi Taşkent davlat teatrida

1939 jil 22 dekaвrda M. Gorkij namidagi Taşkent Rus Davlat Dram teatri Oz. SSR niŋ 15 jaşga tolişiga ataв Hamza Hakimzadaniŋ «Baj ila xizmatci» asarini rus tilida sahnaga qojdi.

Bu asarni OzSSR san'atda xizmat korsatgan arвaвi ortaq V. A. cirkin, rezissor Oz. SSRda xizmat korsatgan ortaq N. S. Firsov sahnaga qojdilar. Bu asarni sahnaga qojişda OzSSR Xalq artisti ordenli ortaq M. Ujƣur konsultantlik qildi. Spektaklniŋ xudoznigi ortaq V. V. Roвerg, muzikasini işlagan ortaq V. A. Xaetdir.



*





Suratda: (juqaridan pastka) — 1) Asarniŋ 4 nci pardasidan Çamila rolida (cəp tamanda) Ƣ. I. Zagurskaja; Xaç ana rolda artiska Je. L. Lenina 2—asarniŋ 2 nci pardasidan. Sahnada koringanlar (cəpdan oŋƣa) Xalmat rolida artist Voroвjev; Ƣafur rolida artist Izвekov; Saliвaj rolida artist Rozantsov; Qazi damla rolida artist Şestakov, imam damla rolida artist Oвuxov.

3. 2 nci pardasidan (cəpdan) Xanzada rolida artistka Nicaj R. I. Xalmat rolida artist Voraвojov N. V.

**Foto Permenovniki**

# ANTARKTIKAGA SAJAHAT

Jaqinda Bostondan Antraktikaga maşhur amerikali qutuʙ olkalarini tekşiruci admiral Berdniꞑ katta ekspeditsijasi çonaʙ ketdi.

Çanuʙij qutuʙ dairasida jer şariniꞑ altinci qit'asi-materiki ʙolgan Antarktida ʙar. U Çanuʙij Amerikadan 1360 km, Avstralijadan 2500 km, Afrikadan 3 900 km masafadadir. Antarktidaniꞑ sathi qariʙ muz qatlami ʙlan qaplangan, ajrim orinlərda taƣ coqqilari qapariʙ ciqqandir. Undagi muz majdani 14 million kvadrat kilometr jerni işƣal qiliʙ, uniꞑ 11,3 million kv. km quruq jer ustida ʙoliʙ, qalgan qismi kattakan muz tillari qijafatida deꞑizga coziliʙ ciqadi. Janada Antarktida qirƣaqlari cetidagi oziniꞑ mangilik muzi ʙlan maşhurdir, jil sajin muz osa keliʙ, deꞑiz sathidan 250 metr ʙalandlikka kotarilgandir.

Antarktikada hava çuda savuq, savuqlik 62 gradusga jetadi, 1911 jilda Antarktikaniꞑ jaz cillasida maşhur sajjah Amundsen Çanuʙij qutuʙda 40 gradus savuqlikni qajd qilgan edi. Antarktikada hava sra . ilimajdi, havadagi nəmlik hec qacan sujuq halda tuşmajdi — jaƣmur emas, qar jaƣadi.

Antarktidada daim kucli şamallar hukm suradi, şamalniꞑ sur'ati sekundiga 50—60 metr ʙolişi ʙunda addij ahval sanaladi.

Antarktidaniꞑ iqtisadij ahamijati həzirca uniꞑ hajvanlaridadir — tjulen va kit hajvanlari. 1931 jilniꞑ oktaʙridan 1932 jilniꞑ apreligaca norvegijalilar 23723 kit uşlaʙ, ikki million ʙockadan artiq kit jaƣi hasil qildilar.

Antarktida olkasi artiqca iqtisadij ahamijati ʙolmaganiga qaramasdan, hazirdanaq Uluƣ Britanija, uniꞑ dominionari ham Fransija davlatlari tamanidan taqsim qilinajatir, qisman Amerika Qoşma Ştatlari va Norvegija davlatlari ham Antarktidaga xaridarlik qiladilar.



Admiral Berd

Çanuʙij qutuʙ adamlar ucun uzaq vaqtgaca sirli ʙir narsa ʙoliʙ keldi. Antarktidani organişga ikki asasij saʙaʙ tosqunlik qiladi: ʙirincidan, ʙu olkada qattiq, kucli şamallar hukum suradi, ikkincidan, Antarktidani ajlantiriʙ algan muz taƣlari ʙariʙ erişalmaslik tosqunlik qiladilar. Paraxodlar ʙolmagan vaqtda ʙu olkaga sajahat qiliş ajniqsa qijin edi.

1772—75 jillarda maşhur ingliz sajjahi Dzems Kuk jelkanli karaʙlar ʙlan dastlaʙ jer şarini ajlaniʙ, Çanuʙij qutuʙ olkasini juriʙ ciqdi. U Amerikadan çunuʙda Çanuʙij Georgija atasini va Sandvic Jeri atalgan ʙir gruh atalarni kaşf qilgan edi.

Kukdan kejin uzaq vaqtgaca çuƣrafij maqsad ʙlan ʙu olkalarga ekspeditsijalar juʙarilmasdan qaldi. Faqat tjulen avcilari ʙirin-ketin ʙir qanca arallarni acsalar-da, ular 63 gradusdan çanuʙgarak ota almadilar.

1819 jilniꞑ 16 ijulida Kronştadtdan ikki rus harʙij jelkanli karaʙlari uzaq safarga çonadilar. Bu «Vostok» va «Mirnij» ismli karaʙlardan iʙarat ʙolgan ekspeditsijaniꞑ ʙaşluƣi taçriʙali deꞑizci Faddej Bellinsgauzen edi. Bu ekspeditsija qariʙ ikki jil sajahatda ʙoldi, 29 jaꞑi arallar kaşf qilindi, kop kolleksijalar toplandi,



Jer şariniꞑ altinci qit'asi Antraktidaniꞑ muz devarlari aldida.



Amerikali maşhur qutuʙ olkalarini tekşiruci admiral Berdniꞑ jaqinda ucinci marta çanuʙij qutuʙ olkasiga taşkil qilgan ekspeditsijasida «Qar krejseri» iştirak qiladi. Bu — ekspeditsija ucun maxsus jasalgan kattakan traktordan iʙaratdir. «Qar krejseri»da mukammal ançamlaştirilgan uc uj ʙoliʙ, uniꞑ ucun 80 gradusli savuqlik ham qorqinc emasdir. Berd «Qar krejseri» ʙlan Çanuʙij qutuʙga jetiʙ, uc aj maʙajnida ilmij işlar otkarmakci.



Çanuʙij qutuʙ olkasiniꞑ muzlari arasida Dƶems Kukniꞑ karaʙlari.

tarixda ʙirinci marta deꞑiz cuqurliklarini olcaşga urundi.

Kejingi 50 jil zarfida Antarktidada 20 dan artiq jirik ilmij ekspeditsijalar iş kordilar. Bu ekspeditsijalarniꞑ kopi unda qişlaʙ qaldilar, ʙa'zilari ikki qişni qatardan otkardilar, uc martaʙa Çanuʙij qutuʙga ʙardilar. 1911 jilniꞑ 14 dekaʙrida Roald Amundsen canalarga itlar qoşiʙ Çanuʙij qutuʙga jetdi. 1912 jilniꞑ 18 janvarida Roʙert Skott Çanuʙij qutuʙga jetiʙ, qajtarida halak ʙoldi. 1929 jilniꞑ 29 nojaʙrida Berd ajroplan ʙlan Çanuʙij qutuʙni uciʙ ciqdi.

Amerikali harʙij deꞑizci Ricard Evelin Berd 1926 jilda dastlaʙ ajroplan ʙlan Şmalij qutuʙdan uciʙ ciqiʙ, şuhrat qazandi. Berd ozinin 1928—1930 jillarda Antarktikaga ʙolgan ʙirinci ekspeditsijasini keꞑ suratda taşkil qilgan edi. Ekspeditsija uc paraxoddan iʙarat ʙoliʙ, tort ajroplan, avtoli canalar, itlar, radio qurulişlar, har xil apparatlar, jiƣiştirmali ujlar ʙlan ta'min qilingan edi.

Berdniꞑ ikkinci ekspeditsijasi 1933—1935 jillarda taşkil qilindi. Bu safar ikki paroxod ʙardi, paroxodlarda 120 kşi, tort ajroplan, alti traktor, 150 it va harxil ilmij asʙaʙlar va alatlar alindi. Ikki ekspeditsija natiçasida Antarktikaniꞑ sahilidan a'ʙ ta Çanuʙij qutuʙgaca ʙolgan katta ʙir uluşiniꞑ surati alindi va xaritaga cizildi.

Hazir Berd ucinci marta Antarktidaga çonaʙ ketdi. Bu jola u ham ilmij ham amalij maqsadlarni kuzatadi. «Nond Star» paroxodi Antarktidaniꞑ şarqdaraq haligaca heckim tarafidan alinmagan ʙir qismida jaꞑi ʙaza quruʙ alişi ihtimal. Bunda daimij metiorologija stansalari quruliʙ, Amerika aviatsijasiga va flotiga hava toƣrisida ma'lumat ʙeriliʙ turilsa, ularniꞑ uruş vaqtida Uluƣ okeanniꞑ çanuʙij qismida xizmat korsatişga katta onƣajilik tuƣdiraçak.

Berdniꞑ ʙu ekspeditsijasi kerak-jaraƣ ʙlan çuda ʙaj ta'min qilingan. Ularniꞑ icida diqqatni çalʙ qilarligi maxsus jasalgan «Qar krejseri»dir. Uniꞑ ʙlan Çanuʙij qutuʙga ʙariʙ, unda uc aj ilmij tekşirişlar otkazişga ojlanadi.

## Marsda hajat

Sajjaralarda-planetalarda hajat ʙarmi?

Bu saval juzlarca jillardan ʙujan faqat astronomlarnigina emas, ʙalki hammani qziqtiriʙ kelmakda. Qujaş şu'lalari ʙlan eꞑ kucli isitilgan Merkurij ʙolsin, savuq gigantlardan Jupiter va Saturn ʙolsin, ulardan qala Uran, Neptun va Pluton planetalari ʙolsin, hajat—trikcilik ucun zarur zamin ʙermajdilar. Eꞑ jaqin qoşnimiz Mars esa, ʙunda ahval ʙəşqacadir. Durust, Marsda hajatniꞑ mumkinligi hazirgaca isʙat qilingan ʙolmasa ham, unda hajatniꞑ mumkin ʙolmaganligi hec nma ʙlan isʙat qilingan emas.

Marsni tekşiriş muntazam davam qiladi, ajniqsa uniꞑ jerga eꞑ jaqin kelgan davrlarida tekşiriş işlari çiddij tus aladi. Bu davr otgan jilniꞑ jaz axirida va kuz ʙaşida ʙoliʙ otdi. Amerika astronomi Sliferniꞑ eꞑ kejingi tekşirişlari qiziq natiçalar ʙerdi.

Slifer maxsus foto-apparat ʙlan Marsniꞑ raꞑli suratlarini ala ʙildi. Bu suratlar sra kutilmagan faktlarni aciʙ ʙerdi. Mars planetasiniꞑ usti — sathi kop ozgarar ekan.

1659 jilda maşhur fizik va astronom Gjugens Marsniꞑ ustida qandajdir qara daƣlar ʙolganligini acgan edi. Undan kejin kop astronomlar ozlariniꞑ ta'rifida, ʙu «deꞑiz» va «kol» larniꞑ suratlarini ciziʙ aldilar, əmma kucli teleskoplar suvdan asar tapmadilar.

Bu daƣlarniꞑ haçmlari va şakillari hamişa ʙir kuji ʙoliʙ korinsada, əmma Slifer Marsniꞑ çanuʙij qutʙ tamanida qar va muzdan iʙarat ʙolgan «telpagida» keskin ozgariş sezdi.

Slifer oz kuzatişlariniꞑ natiçalarini tola i'lan qilƣan emas. Əmma u Marsdagi daƣniꞑ qujuq osumliklar ekanligini isʙat qiladi. Marsniꞑ qutʙ tamanida ʙahar ʙaşlanişi ʙlan osumliklarniꞑ çanlaniʙ ketişlarini da'va qiladi.

## Avokado mevasi

Avokadoniꞑ vatani Meksika va Gvatemalarniꞑ taƣli rajonlaridir. Avokado tez osadigan daraxt, uzunligi 15 metrga jetadi. Şaxlari keꞑ jajiliʙ osadi, japraqlaridan anis hedi keladi. Erta ʙaharda gullasa ham, mevasi 12—16 ajdan kejingna pişiʙ jetadi.

Avokadoniꞑ jirik nakka oxşagan mevalari har qajsi 500 gramgaca tartadi, ʙir daraxt 800—1000 dana meva hasil ʙeradi.

Qujuq qajmaq kaʙi ʙolgan avokada muvasida 30 protsent jaƣ, 11 protsent ʙelok va kop miqdarda «A», «B», «D» vitaminlari ʙar.

Meksika va Gvatemala ahalilari avokado mevalarni qadimdan avqatga isti'mal qiliʙ keladilar. Otkan asrniꞑ ʙaşlarida Amerika Qoşma Ştatlari ham avokadoni Kalifornijada va Floridada osdirişga kirişdi. Hazir miꞑlarca gektar jerda avokado osdiriladi.

Avokado SSSRga dastlaʙ 1930—33 jillarda keltirilsa ham, zamin tapilmasdan xaraʙ ʙolgan edi. 1936 jilda 200 ʙaş avokado osumligi Gruzija kolxoz va sovxozlarida, Batumi ʙotanik ʙaƣida va Suxumida osdirila ʙaşlandi. Avokado jaꞑi zaminga tez konikdi va jaxşi osa ʙaşladi, 5—6gradus savuqlikni ham kotaradi. Jaqinda sovet avokado daraxtlari ʙirinci mevalarini ulgurtiʙ ʙerdi.

Avokado jaƣi çuda fajdali ozi jaxşi avqat ʙolişi ʙlan, kasallarga ham anca şfasi ʙar. Sanaatda kakao vo kokus jaƣlariniꞑ ornida turadi.

SSSR Avqat sanaati xalq komisarligi ʙu qadrdan osumlikni keꞑ orcitiş caralarini kormakda.

## T A P Q U N C A Q

**Tuzuci: A. ÇABBAROV**




Ajroplanlarniꞑ har ʙiri alahida soz ʙoƣumiga ega ʙoliʙ, jiƣindisi ʙir şiar ʙoliʙ ciqadi. Sozlarniꞑ tuzulişi ucun ajroplandagi julduzlar jardam ʙeradi. Ajroplan astidagi raqamlar sozniꞑ tərtiʙ ʙlan tuzulişiga jardam ʙeradi. Har soz ajrim-ajrim ʙirinci raqamlardan ʙaşlaniʙ, çumla şakliniꞑ oꞑ tamanidan davam etadi.

---

II.

## C A J N V O R D

**Tuzuci: A. ÇABBAROV**



Şakliniꞑ janlariga qojilgan suratlarniꞑ namlari har katakka ʙir harfdan qojiladi. Bir sozniꞑ nami ikkincisiniꞑ axiriga ja aldiga toƣri keladi.

## BU SANDA BARLAR:


1. Ozʙek xalqiniꞑ juksak sjasij aktivligi . . . . . . . . 1
2. S. MERKUROV
„Maska“ . . . . . . . . . . 2
3. A. KONONOV
Eꞑ muhumi . . . . . . . . . . 3
4. DAVRAN
Gorkij va Lenin . . . . . . . . 4
5. ANRI BARBUS
Stalin . . . . . . . . . . . . 5
6. M. BULATOV
Stalin namidagi Katta Farƣana Kanali . . . . . . . 7
7. ÇASUR
Rojal janida . . . . . . . . . 9
8. A. P. CEXOV
Uzun til . . . . . . . . . . . 10
9. T. ÇALALOV
„Ləjli va Maçnun“niꞑ suzeti . . 12
10. Ƣ. RASUL
Cori . . . . . . . . . . . . . 15
11. A. ATABEKOV
Beʙaha alim . . . . . . . . . . 18
12. PROF. TER-GEVONDJAN
Ərmən xalqiniꞑ san’ati . . . . 22
13. J. ASLIDDINOV
Jamaqci . . . . . . . . . . 25
14. U. M.
Aʙadij hajat qaladigan adam . . 27
15. ŞAJXZADA
Zahiriddin Baʙir . . . . . . . 23
16. Baʙirdan namunalar . . . . 31
17. M. HAKIM
Arqandagi altmiş jil . . . . . 34
18. J. HAMDAM
Lutfixanim . . . . . . . . . . 36
19. „Baj ila xizmatci“ M. Gorkij namidagi Taşkent davlat teatrida . . . . . . . . . 37
20. FAN-TEXNIKA
Antarktikaga sajahat-Marsda hajat-Avokado mevasi . . . 38
21. Tapquncaq-cajnvord . . . . 40


**MUQAVADAGI SURATDA:**
**Altin kol rajoniniꞑ (Farƣana oʙlasti) «Juqari hasil ucun» kolxozida Vladimir Leninga jaꞑi hajkal quruldi.**
**Penson fotosi.**


Zurnalda ʙasilmagan materiallar egalariga qajtarilmajdi



**Mas’ul redaktor: V. ZAHIDOV.**

Texredaktor: **M. Suʙaj.**
Korrektor: **V. Qadirov.**

**REDAKSIJANIꞐ ADRESI ş. Taşkent. Poligrafkomʙinat, 2-qaʙat, uj № 18 (telefon: 30564).**

**„Qzil Ozʙekstan“ gazetasiniꞑ naşrijati**

**Ozpoligrafkomʙinat. Zakaz № 497 Ozglavlit vakili № 1524. Tiraz 18000**